

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OʻRTA  
MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
TASVIRIY SANʼAT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

# **TASVIRIY SANʼAT TARIXI** **fanidan**

## **MAʼRUZALAR MATNI**

Talim sohasi: 110000 - Pedagogika  
Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar  
Taʼlim yoʻnalishi: 5110800 - Tasviriy sanʼat va muhandislik  
grafikasi

**Andijon ó 2017**

O'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2015 yil 6 aprel 137 bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: S. O. Mirzayev Tasviriy san'at va chizmachilik kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchi S. Bulatov Tasviriy san'at va chizmachilik kafedrasida professori

Fanning O'quv uslubiy majmuasi Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasining 2017-yil 27-avgustdagi 16-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

## Mundarija

1. «Tasviriy sanʼat tarixi» fani va uning maqsad-vazifalari. Tasviriy sanʼat turi va j nrl ri. Jahon muzeylari Ibtidoiy jamoa davri sanʼati.
2. Qadimgi Sharqdagi quldorlik davlatlari sanʼati. Misr Sanʼati.
3. Old Osiyo (Mesopotamiya) sanʼati. Yangi Bobil podsholigi sanʼati. (er. av. VII asr oxiri). Ishtar darvozasi, Bobil minorasi, Navuxodonosor saroyi. (osma bogʻlar.) Qadimgi Eron va Oʻrta Osiyo sanʼati.
4. Qadimgi Hindiston va Xitoy sanʼati. Antik sanʼat.
5. Qadimgi Gretsiya, Italiya va oʻrta asrlar sanʼati.
6. Ilk xristian, Vizantiya sanʼati. Oʻrta asrlarda Garbiy Evropa sanʼati. Qadimgi Rus sanʼati.
7. Garbiy Yevropada Uygonish davri sanʼati. Italiyada Uygonish davri sanʼati. Florensiya sanʼati.
8. Niderlandiya, Germaniya, Frantsiya va boshqa Garbiy Evropa mamlakatlarida Uygonish davri sanʼati.
9. XVII - XVIII asrlar Evropa, Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Flandriya sanʼati.
10. XVII - XVIII asrlar Gollandiya, Germaniya, Avstriya va Angliya sanʼati.
11. XVIII-XIX asr Rus sanʼati, XVIII asr oxiri XIX asr Jaxon sanʼati, XVIII asr oxiri XIX asr oʻrtasi Frantsiya sanʼati, XVIII asr oxiri XIX asr Ispaniya sanʼati.
12. XIX asr Angliya va Germaniya sanʼati, XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsiya sanʼati, XX asr Jaxon sanʼati.
13. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rus sanʼati, XIX asr oxiri - XX asr
14. XX asrning birinchi va ikkinchi yarmida Oʻzbekiston sanʼati.
15. Mustaqillik davri Oʻzbekiston sanʼati.

**1- Mavzu: «Tasviriy sanʼat tarixi» fani va uning maqsad-vazifalari. Tasviriy sanʼat turi va janrlari. Jahon muzeylari Ibtidoiy jamoa davri sanʼati.**

**Reja:**

1. Sanʼatning klib chiqishi, mazmuni va mohiyati,
2. Tasviriy sanʼatning tur va janrlari
3. Jahon muzeylari
4. Er. av. 3 ming yillikgacha boʻlgan davrda Tosh asri, er. av. 3-2 ming yillikagi boʻlgan mis va bronza asri, er. av. 1 ming yillikdan toʻrtinchi asri.
5. Shu davrdagi mʼmorchilik tasviriy va amaliy-dekorativ sanʼat.
6. Oʻrta Osiyo, Oʻzbekistonning iqtisodiy davrdagi yodgorliklari.

**Adabiyotlar:**

1. Abdullaev N.U. «Sanʼat tarixi» Tom 1, Toshkent, Oʻqituvchi, 1986 y. (5-19betlar)
2. Abdiyev V. I. «Qadimgi Sharq tarixi», Toshkent, 1965 y (4-18 betlar)
3. Pugachenkova G.A., Rimplov L. I. «Istoriya iskusstva Oʻzbekistona», Toshkent 1984 y. (7-14-betlar)

Sanʼat juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo boʻldi, Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, goʻzallik xissi ortdi, voqelikdagi goʻzallik qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfijamiat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta oʻzgarishlar sodir boʻldi aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshladi, Bu esa fan va sanʼat rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional sanʼat va sanʼatkorlar shu davrda paydo boʻldi. Sanʼat esa oʻzining oʻziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning idrologiyasini targʻib etuvchi kuchli gʻoyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yitishib chiqqan istidodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning goʻzallik va xudbinlik oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va magʻlubiyatlari ularning asarlarida oʻz ifodasini topdi. Xar bir davrda mavjud boʻlgan ana shunday sanʼat hayot goʻzalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tashviliq ozodlik birodarlik yorqin keng lajakka intilishga davat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar boʻlib qolmay, balki oʻzida inson aql-zakovati, hayot toʻgʻrisidagi fikruylarini aks ettiruvchi koʻzgu hamdir, Jaxon sanʼati tarixini oʻrgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, oʻtmish odamlarning xis-toʻygu, hayotiy tajribalarini oʻrganish gʻoyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish dard makdir. Bu soʻzsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy sanʼat turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

**Grafika.** Hozirgi zamon sanʼatining keng tarqalgan turlaridan biri grafika sanʼatidir. Tasviriy sanʼatning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm,

illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo'lmay, ko'p hollarda qog'ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani bir necha qog'ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir mazmunni ochib beradi. Grafika san'ati hozirjavob san'atidir. Masalan, rassomlik asarlari yaratilishi uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi (axir ba'zi rassomchilik asarlarini yaratish uchun 15-20 yil kerak bo'lgan), grafika san'ati asarlarida esa shu bugun sodir bo'lgan voqea shu bugunoq o'z aksini topishi mumkin. Grafika san'atida rang ishlatilmaydi, ishlatilsa ham, uning xarakterli tomonini belgilamaydi. Masalan, D. Moorning «Sen ko'ngilli bo'lib yozildingmi?», Toidzening «Ona Vatan chaqiradi!» degan plakatlarida odam kiyimi ochiq qizil rangda ko'rsatilgan. Aslida hayotda bunday voqeani uchratish qiyin. Rassom rang orqali o'z asarining yanada ta'sirchan bo'lishiga erishgan. Kishi shu plakat oldidan o'tib borar ekan, qizil rang uning diqqatini o'ziga tortadi. Natijada u to'xtab plakat mazmunini chuqurroq bilib oladi. Rus san'atining atoqli vakillari Mayakovskiy, Cheremnixlar qizil rangdan davlatning ramzi sifatida foydalanganlar, ular rus kishilarining rasmini qizil rang bilan, hokimiyatning dushmanlarini esa qora va ko'k ranglarda ishlab, o'z g'oyalari tez va oson tushunarli bo'lishiga erishganlar. Grafika asarlari o'zining bajaradigan funksiyasi va mazmuniga qarab, dastgoh grafikasi, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, plakat hamda amaliy grafika san'atiga bo'linadi. Dastgoh grafika san'atiga mustaqil xarakterga ega bo'lgan, o'zida tugal fikrni anglata oladigan, yangi g'oyalarni ilgari suradigan grafika asarlariga aytiladi. Dastgoh grafika san'ati asarlarining ko'rinishlaridan biri estampdir. Dastgoh grafikasi asarlarida biron-bir mazmun, odamlarning xatti-harakati, tabiat ko'rinishi yoritiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasi turi dastgoh grafikasidan farq qilib, bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog'liq bo'ladi hamda ularning maqsad va mazmunini to'laroq ochib berish uchun xizmat qiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasiga rassom tomonidan kitob va gazetalarga chizilgan turli rasmlar, bezaklar, harf kompozitsiyalari kiradi. Kitob hamda gazeta-jurnal grafikasining ko'rinishlaridan biri bu illustratsiyalardir. Illustratsiya biron-bir badiiy asar bilan bog'liq bo'lib, shu asarda tasvirlangan biron-bir lavhaning tasvirini aks ettiradigan rasmga aytiladi. Rassom biror-bir hikoya yoki kitobga illustratsiya ishlashga o'tishdan oldin uni sinchiklab o'qiydi, matnda tasvirlangan har bir obrazning xarakterini, voqea sodir bo'layotgan joyning xususiyatlarini o'rganib chiqadi, shundan keyingina unga illustratsiya ishlashga kirishadi.


Illustratsiyaning maqsadi badiiy asar mazmunining chuqurroq ochilishiga va ta'sirliroq bo'lishiga yordam berishdir. Illustratsiyalar turli ko'rinishda bo'ladi. Illustratsiyalarda badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxs portreti, shuningdek, muhim voqealar tasvirlanishi mumkin. Kitob va gazeta-jurnal grafikasining ko'rinishlaridan yana biri karikatura bo'lib, u tanqidiy xarakterga ega bo'ladi hamda o'zida satira va yumorni mujassamlashtiradi.

Karikaturachi rassom hayotda mavjud bo'lgan voqea va hodisalarni o'z asariga mavzu qilib oladi va uning ba'zi tomonlarini bo'rttirish orqali rasmlarning qiziq va kulgili bo'lishiga erishadi. Bu orqali rassom hayotdagi kamchiliklarni

tanqid qiladi, jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beradigan, zamonamiz, kislularimiz sha'niga dog' bo'lgan hodisa, illat va marazlarni qoralaydi, mavjud bo'lgan nodonlik, xurofot, tekinxo'rlik, poraxo'rlik, davlat mulkiga xiyohat qiluvchilarning basharalarini ochib tashlaydi. Grafika san'atining turlaridan yana biri plakatdir. Plakat lotincha so'zdan o'lingan bo'lib, «e'lon», «guvohnoma» degan ma'noni anglatadi. Grafika san'atining nihoyatda keng tarqalgan turlaridan biri amaliy grafikadir. Turli xildagi etiketkalar, konvert yuzasiga ishlanadigan bezak rasmlar, tabriknoma, telegrammalar, markalar grafikaning shu turiga mansub.

Amaliy grafika shunchaki bezak uchun ishlatiladigan san'at emas, u ham san'atning boshqa turlari kabi ijtimoiy hayotda faol qatnashadi, jamiyatda bo'layotgan yangiliklar bilan ommani tanishtiradi. Hukumatning g'oyalarini xalq orasida targ'ib qiladi.

Grafika san'ati eng demokratik san'atdir. U goh plakat tarzida, goh gugurt qutichasining yuzasiga ishlangan tasvir tariqasida, goh gazeta sahifalaridagi surat tarzida o'lkaning uzoq chekkalariga kirib boradi, o'sha yerlarda ma'rifat tarqatadi, kishilarni bo'layotgan yangiliklar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham grafika san'ati katta g'oyaviy-siyosiy ahamiyatga egadir.



**Rangtasvir.** Tasviriy san'atning ikkinchi bir turi rangtasvir san'atidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o'rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o'tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko'rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajmini ko'rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o'zining vazifasi va

ishlanish uslubiga ko'ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo'linadi.



Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirirga, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga-harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to'g'risida real tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o'taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to'g'ridan to'g'ri suvoq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo'yalgan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o'yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to'rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo'ladi - bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganchda, yog'ochda) ishlanib olinib bitgandan so'ng devorlarda qoldirilgan maxsus o'rinlarga o'rnatiladi. Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo'yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo'lgan o'ringa yopishtiriladi.

Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bog'liq bo'lib, asosan bezash vazifasini o'taydi. Dekorativ rang tasvirga naqqoshlik san'ati, teatr, kino dekoratsiyalari va qisman monumental rassomchilik ham kiradi. Dekorativ rangtasvir monumental rangtasvir singari to'g'ridan to'g'ri devorga ishlanishi, panno, mozayka tarzida bo'lishi mumkin. Dastgoh rangtasvir hozirgi zamon tasviriy san'atida yetakchi o'rinni egallovchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Odatda u maxsus ramkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rasmlar molbert deb ataladigan alohida dastgohda ishlangani uchun ham ularni dastgohli rasmlar deyiladi.

Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo'layotgan muhim voqea va hodisalarni aks ettirishidan tashqari, shaxsning individual xislatlarini, kechinmalari, his-tuyg'ularini to'liq ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar o'zining yorqin ifodasini topadi. Dastgoh rangtasvir monumental va dekorativ rang tasvirdan farqli o'laroq, mustaqil ahamiyatga ega, u boshqa biron san'atga bog'lanmaydi. Dastgoh rassomligi birmuncha kech paydo bo'lgan bo'lib, uning rivojlanish davri Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda esa tasviriy san'at turlari ichida uning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo'lgan. Hozirgi kunda u o'zbek tasviriy san'atida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

*X. Stenveyk. «O'tkinchi dunyo». XVII acp*





Peyjaj - manzara janrida tabiat ko'rinishi o'z aksini topadi. Unda real yoki hayolan ko'z oldiga keltirilgan joylar, me'morlik qurilishlari, shahar ko'rinishi (veduta), dengiz ko'rinishi (marina) va hokazolar tasvirlanadi. Voqelik tasviri va inson atrofini o'rab olgan tabiat ko'rinishi manzarada o'z aksini topadi.



**Haykaltaroshlik.** Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o'rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi.

Haykaltaroshlik asarlari o'z ishlatilish o'rni, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabariq ko'rinishda bo'ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi. Qabariq haykallar relef deb ataladi. «Relef» fransuzcha so'z bo'lib, yuza degan ma'noni bildiradi. Relefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda, kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday releflarni ba'zan perspektivali relef deb ham yuritiladi. Relef, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi. Ulardan biri barelef, ikkinchi turi esa gorelefdir. «Barelef» ham fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, past relef degan ma'noni anglatadi. Barelefdan haykal tekis yuzaga nisbatan biroz qabargan (bo'rtgan) bo'lib, lekin uning qalinligi o'zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshmasligi lozim. Masalan, tanga, znachok, medal yuzalaridagi bo'rtma tasvirlar bunga misol bo'la oladi. Bareleflar ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini, me'morchilik binolarini bezashda juda qo'l keladi. Qadimgi Gretsiyada hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar, masalan, ko'za, guldon, qurol-aslahalarning yuzalarini bareleflar bilan bezaganlar,

binolarning devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar ishlaganlar. «Gorelef» so'zi ham fransuzcha bo'lib, baland relief ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshgan bo'lishi shart.

Reliefning yana bir turi bor. Bu o'yib ishlangan releflardir. Bunday releflar odatda tekis yuzaga o'yib ishlanadi. Yuzani o'yish natijasida hosil bo'ladigan yorug'-soya o'yini hisobiga tasvir ko'zga tashlanadi. Bunday releflarning imkoniyati chegaralangan bo'lganidan ular amalda juda kam qo'llaniladi. Bunday releflar qadimgi Misrda ishlatilgan. Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, adabiylik baxsh etsa, aksincha, marmarda ishlangan haykallar nozik, ko'rkam ko'rinadi. Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab, har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko'p. Bu plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llanadi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga, u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi lozim. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu tasvirlanayotgan qahramonlarning ko'tarinki ruhdagi tasviridir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza va hokazolardan ishlanadi. Bulardan tashqari, monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagi buklanishlar, undagi mayda detallar ko'rsatilmaydi. Istirohat bog'lari, xiyobon va ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmuni anglatib, me'morchilikka ham, tevarak-atrofga ham tobe bo'lmagan holda, kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarini ishlashda obrazlarni ko'tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlar biroz yumoristik tarzda talqin etiladi, bo'rttiriladi. Haykaltaroshlikning

bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan turli haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi. Dastgoh haykaltaroshligiga o'zida mustaqil mazmuni anglatadigan, san'atning bosh turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalarga qo'yish, uylarga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi inson, psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyatiga ega. Xuddi shu holda u tabiatdagi mavjud hayvon va jonivorlarni ishlashda ham ularning hayoti, kuchi, xarakterini ko'rsata oladi. Dastgoh haykaltaroshligining ko'rinishlaridan biri byust bo'lib, u odam gavdasini aks ettiruvchi dumaloq haykal hamda o'zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar guruhi (kompozitsiya) tarzida bo'ladi. Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko'rinishi - terrakota hisoblanadi («terrakota» italyanча so'z bo'lib, pishirilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasalib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko'rinishi tinch turganligi holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kechinmalar, uning hayajon va g'amginligi, kelajakka intilishi va o'tmishga qayg'urishi ham o'z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, albatta, eng avvalo, haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlarini to'g'ri ifodalashi muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri topilgan harakat yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo'lishiga zamin tayyorlaydi.



Tasviriy san'atning turlari.

Portr t - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portr t janrida ishlangan

tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining kurinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi kurinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqalar emas, balki musavvirning ichki kichikliklari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dalgiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan U.Tansiqboevning "O'zbekiston kistonda mart", "Jonajon o'zka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor", Z.Inogomovning "Arpa o'rmi", "Choyga", R.T. murovning "Bibixonimda bahorim", "Ulug'lik madrasasi" asarlari mualliflarga shuxrat keltirdi.

Natyurmort - fransuzcha so'z bo'lib, "jonsiz tabiat" dalgan ma'noni anglatadi. Bu janrdagi musavvir asosan insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, mavo va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tavarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsata oladi. Tinkle ijodkor musavvirlardan R.Axmudov, L.Salimjonova, R. Abdurahmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.

Tarixiy janrdagi ishlangan suratlar orqali biz o'zok o'tmishda bo'lib utgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning kurinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr - "botal" frantsuzcha so'z bo'lib, "jang", "urush" ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrdagi jang va harbiy yurishlar manzarasini asosiy o'rinni egallaydi. Botalist - rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi, jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan chaksiz muhabbati ifodalanadi. L. onardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.Q.Sovitskiy, E.A.Dyunka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabiynovning "Spitam n ko'zroloni", musavvir R. Rizamuhammudovning "Mukanna ko'zgololi", musavvir T. Sodiqovning "Tumarisning qasosi" nomli asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Animalistik - janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha "anima", "hayvonot olami" dalgan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot,-dunyosiga zur qiziqish, s'vgi va mahorat bilan yondoshadi.

Xayvonot dunyosi iptidoiy odamlar. hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarining davorlariga kiyiq qutos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimga Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar to'zishda hamda monumntal kompozitsiyalar yaratashda asosiy hisoblangan XVI asrga klib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar L. onardo da Vinchi va A.Dyuryerlar ishladilar.

Kksa haykaltarosh va grafik musavvir V.;A.Vatagin o'zining asarlarida turt oyokli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga nazariy bilim byerish jarayonida mazmuniy to'liq ochib byerishi uchun jonli nutq, orkali so'zlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat-lavhalar, Adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqir.

Maishiy janr: tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli vok alarni o'zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Pityer d Xoh Ostad, St n, Tyerborh Vyermyer qabilar ijodida namoyon bo'ladi. R alist rassomlardan P.F dotov, V.Pyerov, V.Maksimov\* V.Makovskiy, QSavitskiy, I.R pin qabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa

qo'shdilar. O'zbek rassomlaridan R.Axm dov, M.Saidov, Z.Inogomov, R.Chori v, R.Abdurahmonovlar hamda shu janrda barakali ijod etmoqalar.

### **Jahonning eng yirik tasviriy san'at muzeylari.**

Badiiy muzeylar. o'Muzeyo yunoncha o'Muzeyonö so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qadimgi Yunon afsonalariga ko'ra, san'at va fan mabudalarini hisoblangan muzalar uchun mo'ljallangan muqaddas joy ma'nosini anglatadi.

o'Muzeyo so'zi uyg'onish davrida rasmiy tus oldi. Badiiy muzeylarda asosan tasviriy va dekorativ amaliy san'at asarlari to'plandi, saqlandi, namoyish etildi va ta'mirlandi.

Dunyoda birinchi bo'lib davlat muzeyi xuquqini Londondagi Britaniya muzeyi olgan edi. Dastlabki muzeylar Evropada tashkil etilgan bo'lsa, Sharqda ular 19-20 asrlarda paydo bo'ldi. Xususan Dexlida Hindistonning milliy muzeyi (1848 y), Pekindagi Gugun muzeyi (1914 y), Yaponiyadagi Tokio milliy muzeyi (1871 y) va boshq. Badiiy muzeylar orasida tasviriy san'at muzeylari bilan bir qatorda maxsus amaliy san'at muzeylari ham bor. Shuningdek, tasviriy san'atning u yoki bu turi yoki oqimiga bag'ishlangan muzeylar ham mavjud. Masalan Parijdagi bir muzey Impressionist rassomlar ijodiga bag'ishlangandir.

**Britaniya muzeyi**-dunyoning eng yirik muzeylaridan biri bo'lib, u London shahrida joylashgan. Muzey binosi 1823-1847 yillarda me'mor R.Smerk tomonidan maxsus qurilgan. Bino klassizm uslubida yaratilgan bo'lib, unda ibtidoiy jamoa yodgorliklaridan tartib hozirgi zamon rassomlarining asarlarigacha o'rin olgan. Muzeyda qadimgi Sharq, Evropalik san'atkorlarning asarlari ham saqlanadi. Qadimgi Yunonistonlik Fidiy va uning shogirdlari yaratgan asarlar, qadimgi Misrda yaratilgan ishlar ham bor. Muzey xonalarida Angliya sayoxatchilarining Afrika, Osiyo, Amerika, Okeaniyadan olib kelgan etnografik buyumlari ham namoyish etiladi. Shuningdek, bu muzeyda ajoyib rasm va miniatyuralar bilan bezatilgan, kamyob qo'lyozma kitoblar ham saqlanadi.

**Drezden galereyasi**-Germaniyaning Drezden shahrida joylashgan. Bu muzey binosi 1847-1854 yillarda me'mor K.Xenel tomonidan maxsus bunyod etilgan. Lekin galereya 1860 yilda ochilgan. Uning dastlabki eksponatlari Rafaelning o'Sikstin madonnasiö, Jarjonening o'Uyqudagi Veneraö asarlari edi. Shuningdek, muzeyda Rembrandt, A.Dyurer, Titsian asarlari ham maqjud. Keyinchalik muzey Evropa rassomlari va haykaltaroshlarining asarlari bilan boyib bordi.

**Luvr muzeyi**-Franiyaning Parij shahrida joylashgan. Bu bino oʻrta asrlarda qoʻrgʻon, keyinchalik esa qirollar saroyi boʻlgan. Ushbu madaniyat maskani dunyoning eng yirik muzeylaridan biri hisoblanadi. Muzeydagi nodir durdonalar asosini Angliya qirolligida toʻplangan sanʼat asarlari tashkil etgan. Ular rangtasvir, haykaltaroshlik, dekorativ amaliy sanʼat asarlaridir. Muzey 1791 yilda milliy muzey maqomini olib, 1793 yilda birinchi bor omma uchun oʻz eshiklarini ochgan. Muzeydan Qadimgi sharq, Yunoniston, Rim, Qadimgi Misrda yaratilgan ishlar ham oʻrin olgan. Frantsuz xalqi bu muzeyda Leonardo Da Vinchi, Mikelanjelo, Titsian, Rembrandt, N.Pussen, E.Delekrua va boshqa bir qator dunyoga mashhur sanʼatkorlarning asarlari borligidan haqli ravishda faxrlanadi.

**Metropolitan muzey**-AQShning Nyu Yoʻrk shahrida joylashgan boʻlib, u dunyoning eng yirik muzeyi sanaladi. Mazkur muzey 1970 yilda tashkil topgan. Muzeydagi ekspozitsiyalar asosini turli davrlarda xususiy shaxslar tomonidan tortiq qilingan asarlar tashkil qiladi. Muzeyda 3 mln ga yaqin jahon sanʼatiga oid asarlar saqlanadi. Uning asosiy binosidan tashqari koʻplab filiallari ham bor. Xususan, uning rangtasvir va haykaltaroshlikdan tashqari amaliy sanʼat, badiiy fotoga oid alohida boʻlimlari ham mavjud. Unda dekorativ-amaliy sanʼat, musiqa asboblari, kitoblar, liboslar, bolalar rasmlari boʻyicha alohida boʻlimlari ham bor.

Muzeyda Amerika, Afrika, Tinch okeani orollari xalqlari sanʼati, qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, Yaqin va Uzoq Sharq xalqlarining sanʼat asarlari oʻrin olgan.

Uning koʻrgazma zallarida dunyoga mashhur rassomlardan Rafael, Titsian, El Greko, F.Goyya, F.Xals, Rembrandt, K.Mone, O.Renuar, P.Sezan, P.Gogen, P.Pikasso kabi koʻplab sanʼatkorlarning asarlari saqlanadi.

**Ermitaj**-Rassiyaning Sankt-Peterburg shahrida joylashgan. U ham dunyoning eng yirik muzeylaridan biri. Muzey 1764 yilda tashkil topgan, deb hisoblanadi. Lekin muzey sifatida 1852 yilda ochilgan. Ermitaj oʻBirlashgan joy oʻrnini bildiradi. Muzey kolleksiyasida 2 mln 700 mingdan ortiq asar bor. U olti boʻlimdan tashkil topgan.

1.Ibtidoiy madaniyat tarixi. 2. Qadimgi dunyo. 3. Sharq madaniyati va sanʼati tarixi. 4. Rus madaniyati tarixi. 5. Gʻarbiy Evropa sanʼati tarixi. 6. Numizmatika (chaqa, tanga, medallar) tarixi.

Muzeyda rangtasvir, Haykaltaroshlik, grafika, dekorativ-amaliy sanʼatga oid yuzlab eksponatlar bor. Unda Leonardo Da Vinchi, Rafael, Titsian, Velaskes, Goyya, Rubens, Rembrandt, N.Pussen, O.Renuar, A.Matiss, P.Pikasso, Mikelanjelo, O.Roden kabi dunyoga mashhur rassom va haykaltaroshlarning bebaho asarlari saqlanadi.

**Tretyakov galereyasiga** Moskvalik rus savdogari P.M.Tretyakov asos solgan. U oʻzi va ukasi S.M.Tretyakov tomonidan toʻplangan sanʼat asarlari hisobiga 1893 yilda mazkur muzeyni tashkil etgan. P. Tretyakovning tasviriy sanʼatga nisbatan ixlosi kuchli boʻlib, oʻzi yashayotgan uyi yoniga muzey uchun maxsus bino qurdirgan. Muzeyning ochilishi arafasida Tretyakov tomonidan yigʻilgan sanʼat asarlari ikki mingga yaqin edi.

Muzeyda qadimgi rus ranggasviriga alohtsda oʻrin ajratiltan edi. Unda Andrey Rublev, I.Nikitin, F.Rokotov, D.Levitskiy, O.Kiprenskiy, V.Tropinin

asarlari ham keng o'rin berilgan edi. Muzeining alohida zali mashhur rus rassomi A.Ivanovning "Isoning xalqqa ko'inishi" va K.Bryullov tomoidan yaratilgan portretlar uchun ajratilgan.

Galereyada XIX asr rus rashtasvirida o'chmas iz qoldirgan A.Venetsianov, I.Kramskoy, V.Vasnstsov, V.Vereshchagin, V.Surikov, I.Repin, I.Shishkin, I.Levitan asarlari uchun ham katga o'rin berilgan. Bu rassomlar asarlari orasida A.Savrasovning "Qora qarg'alar uchib kelishdi", V.Surikovning "Boyvuchcha Morozova", I.Repinning "Kursk guberniyasidagi salb yurishi", I.Levitanning "Mart", V.Serovning "Shaftoli ushlagan qiz" nomli asarlari galereyaning eng bebaho durdonalaridan xisoblanadi.

Tretyakov galereyasida 1932 yildan boshlab yaqin xorijiy mamlakatlar san'ati namoyish etila boshlagan. Unda Boltiqbo'yi, Kavkaz, O'rta Osiyo respublikalari, Shuningdek, Ukraina, Belorusiya, Moldaviya rassomlarining ijodi doimiy o'rin oldi. Ayiqsa, T.Salahov (Ozarbayjon), M.Saryan (Armaniston), T.Yablonskaya (Ukraina), O'z Tansiqboev (O'zbekiston) kabi ijodkorlarning asarlari alohida o'rinni egalladi.

Galereya Rossiyaning eng yirik muzeilaridan biriga aylangan bo'lib, uning majlislar zalida xalqni estetik ruxda tarbiyalash bo'yicha ma'ruzalar, rassomlar bilan uchrashuvlar ham tez-tez o'tkazib turiladi.

Jahonshp mashhur badiiy muzeylari qatoriga Parijdagi **hozirgi zamon san'ati Milliy muzeyi** (1937 y.), **Impressionistlar muzeyi** (1947 y.) hamda **Rim muzeyini** ham kiritish mumkin, **Rim muzeyida** asosai Hiidiston va Sharqiy Osiyo san'atiga oid asarlar saqlanadi va namoyish etiladi.

Davlat tasviriy san'at muzeylari va galereyalari Ispaiyaniig Madrid, Angliyaning London, Chexiyaning Praga, Vegariyaning Budapesht, Shvetsiyaning Stokgolm, Germaniyaning Myunxen, Potsdam, Ukrainaning Kiyev shaharlarida ham mavjud.

Rossiyada Ermiggaj va Tretyakov galereyalaridan tashqari Sankt-Peterburgda Rus muzeyi, Moskvada Pushkin nomidagi tasviriy sansan'at muzeyi ham bor.

Hozirgi paytda jahonning deyarli barcha mamlakatlarida tasviriy san'at muzeylari bor.

### **Iptidoiy jamoa san'ati.**

Iptidoiy jamoa to'zumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va o'zoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan k chirdilar. Ana shu o'zoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yo'zaga k ldi, Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni koll ktiv bo'lib yashash va m hnat qilishga da'vat etdi. Ular kudrat birliqa ekanligini, hayotning ilk bosqichidayok s zdilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini urganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnakiga zamin yaratdi.

Iptidoiy jamoa to'zumidan bizgacha ashyoviy dalillar o'mehnat va ov qurollari, uy-anjomlari va b zak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yy tib k lgan. Shular iptidoiy jamoa kishisining est tik va diniy qarashlarinm bilishga, iptidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur xosil qilishga yordarl byeradi. Tuprok ostiga kirib k tgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g`or va yertula d vorlariga chizilgan surat va bo`rtma tasvirlar iptidoiy jamoa davri tarixini o`rganishning muhim manbai hisoblanadi, San'at qachon va qanday paydo bo`lgan? San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yo`zaga k ldi va rivojlandi, Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo`pydi, San'atning yo`zaga k lishi insonning ob' ktiv voq lik to`g`risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o`z avlodi tajribalaridan bahramand bo`lishga olib k ldi, Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning akliy kamoloti, est tik karashlari rivojini jadallashtirdi.

Arx ologiyada iptidoiy jamoa to`zumi tarixi qurol yasash uchun ishlatiladigan matyeriallarga qarab, uch asosiy bosqichga ajraladi:

1. Tosh asri - eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo`lgan davr.
2. Mis va bronza asri - eramizdan avvalgi 3-2 ming yillik
3. T mir asri - eramizdan avvalgi 1 ming yillik

Haykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash k ng o`rinni egallaydi. Odem tasviri, ayniqsa, ayollar haykali pal olit davrida k ng uchraydi. Harbiy vropadan (Avstriya) topilgan "Vill ndorf V nyerasi" d b nomlangan haykal mashhurdir. Haykal hajm jihatidan katta emas, (balandligi 0,06 m.) l kin kurinishi jihatidan monum ntal, Haykalda ortikcha d tallar yuq. Ichki kuch-kudratga tula haykalda bosh qismi bir oz b lgilangan, yo`z d yarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo`q l kin shunga qaramasdan, haykal o`zining tulaqonligi, ichki kuchga tulaligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

M zolit yoki o`rta tosh asrida odamlar katta bo`lmagan to`daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin kuchib o`tish, katta yer maydonlaridan foydalanish imkoniyatini byerdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo`lishiga e'tibor kuchaydi. Uq kamon-yoy, qayiqqlarning ixtiro qilinishi iptidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog`och, qamishdan foydalanib, o`zlariga kerakli buyumlar yasay boshladilar.

Odamlar tasavvurlarining kengayishi, abstrakt tushunchalarning yuzaga kelishi san'atning shakl va mazmun xarakterida ham sezila boshladi. San'at mavzusi kengaydi, janrlari esa ortdi. Jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar yaratildi. Ishlangan suratlarda voqealarni keng, atroflicha bayon etishga intilish ortdi. Rassom o`z fikrini bayon etish uchun obrazlarni sxematik va shartli belgilar tarzida tasvirlangan xolda, bo`layotgan voqeaning mohiyatini ochishga harakat qildi.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O`rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. "Kiyiklarni ovlash" (Ispaniya) suratlarida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol s ziladi), sx mati q o`ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. L kin bu shartlilik rassom aytmokchi bo`lgan fikrni tushunishga halaqit byermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon



talvasada kochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon iptidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. O`rta Osiyo (Surxondaryo, Fargona), Ozarbayjon (Kobiston)dan topilgan suratlarda ham shu holni ko`ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), S ymalitosh (Fargona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning xayvonlarga xujumi aks ettirilgan, Zaravutsoydagi niqob kiyib, uljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o`tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to`lqinsimon chiziqlar, konts ntrik aylanalar shu davrdagi ko`pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o`simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka-quyosh ramzi, to`lqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi va h.k.

Neolit yoki yangi tosh asrida (grekcha ðneosö-yangi) odamlar faqat tabiat in`om etgan maxsulotlarni iste`mol qilish bilan chegaralanmay, balki o`zlari ham uni yaratishga, ko`paytirishga harakat qila boshlaydilar. Endilikda ovchilikdan tashqari, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullana boshladilar. Ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi, shu bilan birga, kishilarning ma`naviy olami, dunyoqarashi ham murakkablashib bordi. Bu asrda ham toshlardan qurol yasash muhim rol o`ynadi. Lekin endilikda toshni qayta ishlash, uni pardozlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko`proq e`tibor berila boshlandi. Kulolchilik (keramika)ning paydo bo`lishi ham yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba`zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir.

Qurish san`atining paydo bo`lishi ham ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlardan dalolat beradi. Bu asrda to`qimachilik, terini qayta ishlash ham murakkablashdi. Ijtimoiy hayotda ishlab chiqarish kuchlarining o`sishi, so`zsiz, odamlar orasidagi munosabatlarning taraqqiy etishiga yordam berdi. Qabilalar orasidagi munosabatlarni kuchaytirdi. Asta sekin patriarxat asri matriarxatni siqib chiqarib, jamoani oqsoqollar boshqara boshladi. Yangi tosh asri oxirlarida esa ayrim yerlarda (Old Osiyo, Misr, Hindiston) dastlabki sinfiy formatsiya kurtak ota boshladi. Odamlarning o`troq holga o`tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg`ularini o`stirdi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o`ziga xos naqsh san`atini maydonga keltirdi. Naqsh yangi tosh asrida keng yoyildi, amaliy dekorativ san`atning taraqqiy etishiga ta`sir ko`rsatdi.

Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to`lqinsimon chiziqlar, kontsentrrik aylanalar shu davrdagi ko`pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o`simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka-quyosh ramzi, to`lqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi va h.k.

Naqsh sanʼati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning gʻoyaviy va falsafiy tushunchalarini ham ifodalay boshladi. Yangi tosh asrida mayday plastika ham keng yoyildi. Loy, yogʻoch, shox va suyaklardan hamda qisman toshdan haykallar ishlandi. Mavzusi, asosan, hayvonlarni aks ettirish boʻldi. Koʻp hollarda haykaltarosh hayvonning bosh qismini aniq tasvirlash va tana qismining umumlashma koʻrinishini ishlash orqali shunga erishadi.

Bu davr sanʼatida ayollar tasviri, ayniqsa, keng uchraydi. Lekin bu haykallar birmuncha sxematik va shartli yechimga ega. Baʼzan ayollar obrazi shartli belgilar darajasiga tushiriladi, ayollik belgilari boʻrttirib koʻrsatiladi. Bu xususan Janubiy Turkmanistondan, Ukraina (Tripolye)dan topilgan ayol haykallarini koʻrish mumkin. Yangi tosh asri haqida gapirilganda shuni taʼkidlash lozimki, bu davrdan boshlab sanʼatning local belgilari sezila boshladi. Misr va ikki daryo oraligʻi (Mesopatamiya), Yevropa va Sibir neolit davri sanʼatining oʻziga xos xususiyatlari borligi shundan dalolat beradi. Ishlab chiqarish xususiyati, odamlar yashagan manzillar iqlimi, xarakteri sanʼatning oʻziga xos local tomonlarini belgilashda muhim rol oʻynadi. Yangi tosh asrida paleolit sanʼati anʼanali rivoj topgan boʻlsa ham, lekin unda inson obraziga qiziqish orta bordi.

Bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik oʻrtalarida boʻlib, odamlar misni qalay, qurgoshin, rux yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni oʻrganib oldilar.

Bronza qurollar, yarogʻ-aslaha, z bu ziynat yasash uchun asosiy matyerial boʻlib qoldi. Yer yoʻzida bronza asri boshlandi. Bronza asrini d yarli hamma xalq va elatlar boshidan k chirdi, L kin bu asr ba'zi xalqlarda (masalan, Eron, M sopotamiya, Kavkaz, Oʻrta Osiyo) bir muncha erta, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillar oʻrtalarida boshlangan boʻlsa, boshqa , yerlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Krimda) eramizdan avvalgi . 3 va 2 minginchi yillar ch garasida, Misr, Xitoy, Xindiston, vropada eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda sodir boʻldi. Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim gʻalabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada t zlashtirdi, ishlab chikarish kuchlarini rivojlantirdi, m hnat unumdorligini oshirib, qoʻshimcha mahsulot tuplanishini ta'minladiki, bu oʻz navbatida inson ma'naviy olamining oʻzgarishi va boyishiga olib k ldi.

Oʻrta Osiyo yerlarida bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik oʻrtalariga toʻgʻri k ladi. Bu yerlarda matyeriallardan buyumlar ishlash k ng tarqaldi. Jumladan, Fargonadan topilgan bilak oʻzuklarda qoʻy va shyer tasviri, ayniqsa, ta'sirli chiqqan. Bronza asrida Oʻrta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yoʻzaga k lishi esa, soʻzsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va goʻzal bulishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonta kirra boʻyoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

### **T mir asri.**

Iptidoiy jamoa toʻzumining soʻnggi bosqichi boʻlgan t mir asri, "harbiy d demokratiya" insoniyat ma'naviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon-tarojlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi

bilan harakterlanadi. Ijtimoiy hayotga kirib klgan t mir, tosh va qisman bronza buyumlarni hayotdan siqib chiqardi. O`z xususiyati jihatidan mustahkam bo`lgan bu m tall ishlab chiqarish kuchlarining ortishi va m hnat unumdorligini kuchayishiga samarali ta'sir qildi, ayniqsa, d hkonchilik imkoniyatlarini k ngaytirdi.

Bu ustaxona podsho saroyiga yaqin joylashgan bo`lib, asosan podsho saroyi, podsho oilasi, chyerkov va zadogon savdogarlar buyurtmasini bajarar edi. Mana shu ustaxonalarda samarali ijod qilgan rassomlardan biri Simon Ushakov edi. Rassomning qarashlari uning uncha katta bo`lmagan "Ikona san'atini s vuvchilarga maslahat" risolasida o`z ifodasini topdi.

## **Tayanch tushunchalar.**

Dinamikasi\* - harakati.

Ekspressionizm\* - ma'noli, ifodali, ta'sirli.

Korolinglar\* - O'rta asrdagi kuchmanchi xalq

Toskana va Lombardiya\* - Italiyada joylashgan shaharlar

Ikona - ikonografiya\* - (gr k - tasvirlash)

Diniy rangtasvir - dastgoh asari. Odatda yogoch taxtalar ustiga tuxumdan tayyorlangan bo'yoqlar (tempera) bilan ishlangan. Xristian xudolari va avliyolarining tasvirlari.

Spas\* - Iso payg'ambar nomi.

Arxang Mixail\* - Mixail farishta.

## **Musatahkamlash uchun savollar:**

1. O'rta asr san'ati d b qanday san'atni tushunasiz?
2. O'rta asr m 'morchilik san'atining harakterli tomonlari nimalardan iborat?
3. O'rta asr tasviriy san'atining harakterli xususiyatlari nimada?
4. Varvarlar san'ati bilan gotika san'atida qanday farq bor?
5. O'rta asr san'atining ahamiyati nimada?
6. Qadimgi Rus san'ati d b qaysi asrlar san'atini tushuniladi
7. Qadimgi Rus san'ati taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ayting.
8. Ki vdagi avliyo Sofiya ibodatxonasi va uning rus h 'morchiligi taraqqiyotida tutgan o'rnini nimada?
9. Moskva Kr mli kachon qurilgan va uning rus m 'morchiligida tutgan o'rnini nimada?
10. Andr y Rubl v kim, uning qanday asarlarini bilasiz?

## **7 ó Mavzu. Garbiy Yevropada Uygʻonish davri sanʻati. Italiyada Uygʻonish davri sanʻati. Florensiya sanʻati.**

### **REJA:**

Talabalarni uygʻonish davri sanʻati bilan va shu davrda yashagan yirik sanʻatkorlar ijodi va hayoti bilan tanishtirish.

### **Adabiyotlar:**

1. Alpatov M.V. Xudojestvennoe problemoitalyanskogo Vozrojdeniya. M.1975g
2. Rotenberg E.I. Isskustvo Italii epoxi Vozrojdeniya. M.1974 g.
3. Libman M.Ya. Iskusstvo Germanii XV i XVI vv. M.1964.
4. Alpatov M.V. Piter Breygel Vozrajdenie Niderlandskogo isskustva M., 1933.
5. Nessilshtraus Ts.G. Istoriya zarubejnogo isskustva M., 1982 g. (161-310)

### **MAVZUNING MATNI:**

#### **Uygʻonish davrida garbiy Evropa sanʻati.**

Feodalizm jamiyati qoʻynida ilk kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi va rivojlanishi Evropa hayotida yangi va muhim oʻzgarishlarga olib keldi.



Din asta-sekin oʻz mavqeini yoʻqota bordi. Omma dindand uzoqlasha bordi, shaharlar kengaya bordi. Ularning shiddat bilan oʻsib, rivojlanishi mayda hunarmandchilikdan manufakturaga oʻtishga sabab boʻldi. Bu shaharlarda savdo-sotiq shu darajada rivojlandiki, dengiz orqali dunyoning boshqa burchaklari bilan savdo qilishga talab kuchaydi. Yangi qitʼalar kashf qilindi, bu voqealar insonlar tafakkuri va hayotga boʻlgan munosabatlarida tub oʻzgarishlar yasadi. Bu davrdagi taraqqiyot jarayoni shiddat bilan oʻsdi, uning natijasida yangi sanʼat va yangi madaniyat dunyoga keldi. Mamlakatlar orasida madaniy hayotdagi yangiliklar tez tugʻildi.

Bu taraqqiyot davri Evropa madaniyati tarixida oʻUygʻonish davri oʻ deb nom oldi. Bu iborani ilk bor italyan rassomi va sanʼatshunosi Jorjo Vazare tomonidan, Jotto ijodiga nisbat berib aytilgan eti. Oʻrta asrlar davridan soʻng sanʼat va adabiyotdagi markaziy eʼtibor insonga uning ijtimoiy hayotida tutgan oʻrniga qaratilganligi, uning oʻuygʻonishligini oʻ belgisi edi.

Keyinchalik keng mazmun kasb etgan bu ibora Italiyadan tashqari Evropaning boshqa mamlakatlariga ularning feodalizm davridagi keyingi sanʼat va madaniyatlarini taʼriflashda boshlandi.

Uygʻonish davrida italiya sanʼati va madaniyati uzoq davom etgan, oʻz harakatlarini toʻliq namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bu quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Uygʻonish davri arafasi - protorensans (XIII-XIV asrlar)
2. Ilk uygʻonish davri - (XV)
3. Yuqori uygʻonish davri - (XV asrning 90 yillari - XVI asrning 20-30 yillari)
4. Soʻnggi uygʻonish davri - (XVI asrning II yarmi)

Albatta bu davr barcha Evropa malakatlarida turlicha kechdi. Masalan, Germaniya soʻnggi uygʻonish, Niderlandiya esa yuqori uygʻonish davrini boshlaridan kechirdilar. Uygʻonish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim davr, muhim bosqich, yaʼni insoniyat oʻz boshidan kechirgan oʻzgarishlar ichida eng buyuk progressiv oʻzgarish edi. Natijada ular chin maʼnoda xalqchil asarlar yaratdilar, xalq ommasining orzu-istaklarini, his-tuygʻularini ifodalab chiqdilar, ilgʻor gumanistik gʻoyalarni koʻtarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr gumanizm asri, deb nom oldi. Bu lotinchada insoniylik, insonparvarlik, degan maʼnoni bildiradi. Uygʻonish davri madaniyati antik dunyo madaniyatidan ilhomlandi, Antik dunyo yodgorliklarini qunt bilan oʻrgandi, ulardan taʼsirlandi. Antik dunyo yodgorliklarining Italiyada koʻplab saqlanib qolganligi bunga juda yaxshi imkon yaratdi. Lekin antik sanʼatdan farqli ravishda ular qullar sajda qilgan xudolar deb ulardan shu yoʻsinda emas, balki oʻz fikrlarini, his-tuygʻularini, tushunchalarini ifodalashda foydalandilar. Goʻzallik va garmoniyani real voqelikdan qidirish, real voqelikdan keng foydalanish shu davr taraqqiyotining mezonini belgiladi. Oʻayot real hodisa deb tan olindi. Sanʼatkorlar real voqelikni tasvirlashda yangi qonun va qoidalar izladilar. Asarlar taʼsirchanligini oshirish maqsadi koʻp sohalar bilan hamkorlikda ishlashni taqozo etdi. Perspektiva, rangshunoslik, soya va yorugʻ odam anatomiyasi va shunga oʻxshash sohalarda katta yutuqlar qoʻlga kiritildi.

Meʼmorchilik va amaliy sanʼatda yangi tendentsiyalar rivojlandi. Shu bilan birga qadimgi anʼanalar oʻzlashtirilib, ular yangi mazmun bilan boyitildi. Unda yangi konstruksiyalar vujudga keldi. Ibodatxonalar bilan bir qatorda koʻp qavatli va shinam binolar qad koʻtara boshladi. Binolarning tashqi va ichki koʻrinishlarini bezash, ular ichidagi fazoni tashkil qilish masalasida ancha yutuqlarga erishildi. Bu qilingan ishlar keyingi Evropa sanʼatida koʻproq ahamiyatga ega boʻldi. Uygʻonish davrining oʻziga xos tomonlari protorenessans davrida dastlab italiya rangtasvirida oʻzini namoyon qildi. Ijodkorlar diniy mavzuda ishlangan devoriy suratlarda realistik mazmuni ilgari sura boshladilar. Insonlar orasidagi munosabatlar, muhabbat, olijanoblikni, razillik, xudbinlikka qarshi qoʻya boshladilar, voqelikning real tasvirini yaratishga harakat qildilar. Ularning asarlarida uygʻonish davri realizmining oʻziga xos tomoni hayotiy muammolarni koʻpincha diniy niqob ostida, diniy mifologik obrazlar orqali berish hollarini uchratamiz. Uygʻonish davri sanʼatkorlari ijodida insonlar hayoti, inson baxt-saodat yaratuvchisi va ozodlik uchun kurashchi ekanligi asosiy mavzu boʻlib qoldi. Insonni oʻz asarlarida shunday kuylagan sanʼatkorlardan biri, ilk uygʻonish davrining yirik vakili Donatello boʻldi. Uning «David» deb nomlangan haykali uygʻonish davrida birinchi marta libossiz holda tasvirlangan haykal boʻldi. «Otdagi Gattamellatti» haykali esa jamoatchilikka manzur boʻlgan insonni ulugʻlash yoʻlidagi birinchi otliq haykal edi. Insonni kuylash, uning qahramonligi, aql-zakovatini ulugʻlash uygʻonish davrida portret sanʼatining qaytadan tugʻilishiga olib keldi. Portret sanʼatida ifodalanadigan insondagi nozik his-tuygʻular oʻzining butun borligi bilan uygʻonish davrining buyuk sanʼatkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Titsian, Djordjone ijodida oʻz ifodasini topdi. Ona, onalik mehri ulugʻlandi. Bu oʻrinda Leonardo da Vinchining «Madonna»si va mashhur «Mono Liza» portretini, Rafael Santining «Sikstin Madonnasi», Mikelanjeloning haykallari va devoriy suratlarini, Titsianning inson jismoniy goʻzalligini tarannum etuvchi polotnolarini eslatmay oʻtish mumkin emas. Bu asarlar renessans davri kishilarining ideali oʻzining toʻliq obrazli talqinini topdi. Uygʻonish davrida meʼmorlik va dekorativ amaliy sanʼat borasida ham katta yutuqlarga erishildi. Shu davrning yirik meʼmorlari F. Brunelleski, Leon Alberti ijodida oʻz ifodasini topdi. Ular yaratgan asarlar Evropa meʼmorligi sanʼatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ular meʼmorlik sanʼatiga albatta katta hissa qoʻshdilar.

Shu bilan birga Germaniyada ham bu davrlarda renessans davri sanʼatining yirik vakillari yashab ijod qilishgan. Bular ichida Albrext Dyurer ijodi alohida oʻrin tutadi. U oʻz ijodida nemis sanʼatida erishilgan yutuqlarga tayanib, unig yangi realistik yoʻlini boshlab berdi. U ajoyib grafik, gravyura ustasi, manzara, portret va boshqa janrlarda ajoyib asarlar yaratdi. Germaniya sanʼatida Dyurer bilan bir qatorda Lukas Kranax, Mattis Gryudvand, Gans Golbeyn kabi yirik rassomlar ijod qildi. Gollandiya (Niderland) esa tasviriy sanʼatning yirik vakillari Rogir van der Veyzen, Guyu van der Gus, Piter Breygel, Isonim Bosx Gollandiya sanʼatini yanada yuqori pogʻonaga koʻtardilar.

## **Tayanch tushunchalar.**

Garmoniya - nafislik

«David» - afsonaviy qahramon

Gattamelatta - shu davrning jangchi qahramoni.

«Madonna» - Bibi Maryam

Grafika - sanaʼning keng tarqalgan turlaridan biri. Bu sanʼatga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiya, kitobga ishlangan turli suratlar, bezak rasmlardir.

Gravyura - grafikaning bir turiga kiradi.

### **Savollar:**

1. Uygʻonish davri sanʼati deyilganda qaysi davr sanʼati tushuniladi?
2. Protorenessans nima va bu davrda qanday rassomlar yashab ijod qilgan?
3. Renessans davrining qanday yirik sanʼatkorlarini bilasiz?
4. Ularning sanʼat taraqqiyotiga qoʻshgan hissalarini nimada?

### **8-mavzu. Niderlandiya, Germaniya, Frantsiya va boshqa Garbiy Evropa mamlakatlarida Uygʻonish davri sanʼati.**

Italiyada boshlangan uygʻonish harakati 15 asrdan boshlab, Evropaning bir qancha erlarida ham tarqaldi. Bu harakat shu erdagi mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustaxkamlanishi, dastlabki kapitalning toʻplanishi bilan bogʻliq xolda amalga oshdi. Evropa mamlakatlarida gumanistik gʻoyalarning tarqalishi, milliy birlik mustaqillik uchun kurash, din qurshovidan chiqish va dunyoviy madaniyatga qiziqish bilan birga namoyon boʻladi. Bu qiziqishning amalga oshishiga Italiya gumanistik sanʼati va uning sanʼatkorlari katta taʼsir koʻrsatdilar. Sanʼatkorlar italyan gumanistlarini oʻz ustozlari deb biladilar. Antik madaniyatni qiziqib oʻrgandilar, uning asl namunalarini koʻrish ishtiyoqida Italiyaga sayoxat qildilar.

Evropa mamlakatlaridagi uygʻonish davri madaniyati va sanʼatini boshlanishi hamma erda bir hil va bir vaqtda rivojlandi deb boʻlmaydi. Bu vaqt baʼzi mamlakatlar sanʼati va adabiyotida yutuqlar sezilarli boʻlsa, boshqa mamlakatlarda esa tasviriy sanʼat va meʼmorlikning gumanistik harakat printsiplari oʻzini toʻliq ifoda etdi. Ayrim mamlakatlarda Italiya gumanizmining inqiroz davri sanʼati anʼanalari taʼsirida rivojlanishi ham shu mamlakat sanʼati taraqqiyotining gumanistik harakatlariga taʼsiri sezilarli boʻldi. Shuningdek ayrim mamlakatlarda feodal munosabatlarining sekinlik bilan chekinishi bu erlarda uygʻonish sanʼatining gurkirab oʻsishiga toʻsqinlik qildi. Jumladan, Frantsiyada uygʻonish harakati 15-asr oʻrtalaridan boshlanib, uning rivoji bevosita gotika meʼrosining realistik tomonlarini rivojlantirish bilan birga asta-sekin Italiya renesansini oʻzlashtirish va tadbiq etish bilan birga namoyon boʻladi.

Frantsiyada Uygʻonish harakati 15 asr oʻrtalaridan boshlanib, uning rivoji bevosita, gotika meʼrosining realistik tomonlarini rivojlantirish bilan birga, asta-sekin Italiya renesansini oʻzlashtirish va tadbiq etish bilan birga namoyon boʻldi. Frantsiyada Uygʻonish harakatining kuchayishi bu erda koʻplab italyan sanʼatkorlarining kirib kelishi bilan bogʻliqdir.

15 asrda Frantsiyada millat shakllandi. Shu yillarda Renesans sanʼatining asoslari paydo boʻldi, yaʼni ilk Renesans davri boshlandi. 15 asr oʻrtalarida Frantsiya erlari yagona davlat boʻlib birlashdi. Bu yagona davlat milliy sanʼat va madaniyatning shakllanishida muhim oʻrinni egalladi. Fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Fransiyaning Italiya bilan yaqin aloqada bolishi bu yerda Renessansning kirib kelishini tezlashtirdi. Bu xol meʼmorchilikda Renesans meʼmorlik uslubining kirib kelishida, arkalar, yuzaning yaxlit boʻlishiga eʼtibor berishda koʻrindi. Lekin gotika sanʼatining taʼsiri hamon sezilarli edi.

15 asrda oʻzining eng gullagan davrini boshidan kechirgan miniatyura sanʼatida davr kishilarining muhitga boʻlgan munosabatlari, bilimga boʻlgan intilishlarini ifodasini topdi.

Aka-uka Limburglar miniatyuralarida realizmga intilish, hayotiy lavxa va detallar, real hayotning tasvirini ishlashga harakat qilish yaqqol seziladi. Bu miniatyuralarda fazoviylik etishmaydi, kompozitsiya yarusli (ustma-ust joylashtirish) echimga ega, rassomning kompozitsiyada hamma komponentlarga deyarli bir xilda qarashi esa fikrni yaqqol ifodalashga halaqit bergan. Lekin shunga qaramay, realistik tendentsiyaning kuchayib borayotganligini koʻrish mumkin.

## **9 - Mavzu: XVII - XVIII asrlar Evropa, Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Flandriya sanʼati:**

Flandriya, Italiya, Ispaniya rassomlarining hayoti va ijodi. Shu davrlarda yangi kirib kelgan oqimlar klassitsizm, barokko, rokoko.

### **REJA**

1. Talabalarni XVII-XVIII asr Evropa sanʼati bilan va uning yirik vakillari bilan tanishtirish.
2. Shu davrda kirib kelgan oqimlar va ularning farqini tushuntirish.

### **Adabiyotlar:**

1. Pruch I.E. Zapad. Evropeyskoe isskustvo 17 v. M. 1974 g. (Maldaya istoriya isskustv)
2. Rotenberg E.I. Zap. Evropeyskoe isskustvo 17 v. M 1871.

### **MAVZUNING MATNI:**

XVII-XVIII asr Evropada kapitalistik munosabatlarning avj olishi va feodalizmdan kapitalizmga oʻtish jarayonining tugashida soʻnggi bosqich boʻldi. Ijtimoiy hayotdagi bu oʻzgarishlar bevosita sanʼat taraqqiyotiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Fan, sanʼat va madaniyat gurkirab oʻsa boshladi. Sanʼatda real hayotni tasvirlash rivojlandi. Ozodlik gʻoyalari, shakllanib kelayotgan burjua parokandaligini, feodalizm kirdikorlarini ochib tashlash bu davrda koʻpgina sanʼatkorlar asarlarining gʻoyaviy mazmunini belgiladi. Sanʼat majmuasining kengayishi uning yangi tur va janrlarini maydonga keltirdi. Portret, natyurmort, manzara, maishiy janr koʻp sanʼatkorlarni oʻziga torta boshladi. Haykaltaroshlikning yangi ifoda vositalarini izlab topdilar, gravyura sanʼati

shakllandi. Sotsial kuchlarning oʻzaro kurashining rivojlanishi esa sanʼatda turli gʻoyaviy badiiy oqimlarni vujudga keltirdi. Shunday uslublardan biri barokko oqimidir. Barokko uslubida yaratilgan sanʼat asarlarida hayot mohiyati kurash harakati orqali aks ettiriladi. Unda ekspressiv chiziqlar va yorugʻ soyalar oʻta keskin formada olingan boʻlib, ular asar kompozitsiyasining taʼsir kuchini yanada oshiradi. Italiyalik rassom L. Bernini haykallarida, meʼmor Borromining binolarida, flandriyalik rassom P. Rubens kartinalarida barokko uslubining oʻziga xos tomoni namoyon boʻlgan. Klassitsizm oqimida esa hamma narsa xotirjam va ulugʻvor. Uning namoyandalari uygʻonish davri ijodkorlari singari antik va yuqori uygʻonish davri anʼanalarini qabul etib, uni rivojlantirishga harakat qiladilar. Lekin shu bilan birga klassitsizm vakillari oʻtmish sanʼati badiiy shakl va obrazlarini oʻzlari yashab turgan davr mazmuni bilan toʻldirishga, boyitishga harakat qildilar. Bu oʻrinda Nikola Pussen asarlari, Klod Lorren manzaralari, Jak Sufflo binolari diqqatga sazovordir. Klassitsizm oqimi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmigacha davom etdi va oʻzida davr ruhini ifodaladi. XVII-XVIII asr realistik sanʼatning etakchi oʻringa chiqishi bilan izohlandi. Bu davrda yaratilgan asarlarda inson oʻzining butun borligi bilan namoyon boʻla boshlaydi. Uning hayoti, his-tuygʻulari, hayotga boʻlgan estetik munosabati sanʼatkorlar ijodida oʻzining badiiy ifodasini topa boshlaydi. Ispaniyalik rassom Diego Velaskes, Gollandiya rassomlari - Rembrant va Frants Xals, italiyalik rassom Karavadjo, frantsuz rassomi Sharden va boshqalar ijodida bu oʻzgarishlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Inson goʻzalligi, uning olijanoblighi va yuksak maʼnaviyligi Rembrant asarlarining mohiyatini tashkil etadi. Uning asarlaridagi chuqur falsafiy mazmun kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Rembrant rangtasvir va ofort sohasida, qanday mavzuda (diniy, hayotiy) ishlashdan qatʼiy nazar insonni kuylashga, uning maʼnaviy pokizaligini va jismoniy goʻzalligini ochishga intiladi. Insonlar orasidagi nozik munosabatlarni tasviriy sanʼat vositasi orqali keng tomoshabinga etkazishga harakat qiladi. Rembrant umrining soʻnggi yillarida yaratgan oʻqpadarning qaytishi oʻz asarida hayot va inson toʻgʻrisidagi tushunchalar oʻz hayotiy tajribalariga tayanib, oʻta oyoqlariga yiqilgan oʻgʻil obrazi orqali hayotning murakkabligi, uni bilish va unga toʻgʻri yoʻl topa olish nechogʻlik ogʻir ekanligini ochib beradi. Boshiga ogʻir kun va tashvishlarni solishiga qaramay oʻz oʻgʻdini bagʻriga bosayotgan oʻta obrazi orqali mehribon, insonlarga faqat yaxshilik istagan moʻʼtabar inson qiyofasi gavdalanadi. Bu asrlardan boshlab inson mehnati goʻzalligi sanʼatkorning diqqatini torta boshladi. Sanʼatkorlar mehnat mavzusida yirik asarlar yarata boshladilar. Evropa sanʼatida Diego Velaskes birinchi boʻlib, mehnat goʻzalligini shoirona, koʻtarinki ruhda talqin etdi. Uning oʻgilam toʻquvchilar oʻ deb nomlangan asari ana shunday asarlaridan dastlabkisidir. Rassom oddiy kundalik hayotda insonlarning xotirjam mehnati orqali ularning baxt haqidagi orzularini koʻra oldi. Kompozitsiyada kishilarning tabiiy holdagi xotirjam mehnati, ularning jismoniy baquvvat gavdalari ishonarli talqin etgan. Xonani toʻldirib turgan nur esa bu tinch osoyishta hayot goʻzalligini yanada boʻrttiradi.

XVII-XVIII asrda ijtimoiy hayotda sodir boʻlgan oʻzgarishlar meʼmorchilik oldiga ham qator muammolarni qoʻydi. Bu davrdan boshlab cherkov qurilishi hajmi kamaydi, uning oʻrnini fuqaro meʼmorchiligi egallay boshladi. Shahar

loyihalashtirilishiga alohida eʼtibor berila boshlandi, shaharda meʼmorchilik ansambllari paydo boʻldi. Turmushda goʻzal buyumlarga intilish kuchaydi. Tevarak-atrof goʻzalligiga eʼtibor berish, bogʻ-park sanʼatini maydonga keltirdi. U bilan birga dekorativ haykaltaroshligi ham rivoj topdi.

### **Savollar:**

1. XVII-XVIII asr Evropa sanʼati taraqqiyotining sabablari nimada va bu davr sanʼatida qanday oʻzgarishlar sodir boʻldi?
2. Barokko, klassitsizm va boshqa uslublar, ularning bir-biridan farqi nimada?
3. XVII-XVIII asrda yashab ijod etgan rassomlardan kimlarni bilasiz va ularning asarlarini aytib bering.

### **10 ó Mavzu. XVII - XVIII asrlar Gollandiya, Germaniya, Avstriya va Angliya sanʼati.**

Gollandiya, Germaniya, Avstriya va Angliya rassomlarining hayoti va ijodi. Shu davrlarda yangi kirib kelgan oqimlar klassitsizm, barokko, rokoko.

### **REJA:**

1. Talabalarni XVII-XVIII asr Evropa sanʼati bilan va uning yirik vakillari bilan tanishtirish.
2. Shu davrda kirib kelgan oqimlar va ularning farqini tushuntirish.

### **Adabiyotlar:**

1. Pruch I.E. Zapad. Evropeyskoe isskustvo 17 v. M. 1974 g. (Maldaya istoriya isskustv)
2. Rotenberg E.I. Zap. Evropeyskoe isskustvo 17 v. M 1871.

### **MAVZUNING MATNI:**

XVII-XVIII asr Evropada kapitalistik munosabatlarning avj olishi va feodalizmdan kapitalizmga oʻtish jarayonining tugashida soʻnggi bosqich boʻldi. Ijtimoiy hayotdagi bu oʻzgarishlar bevosita sanʼat taraqqiyotiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Fan, sanʼat va madaniyat gurkirab oʻsa boshladi. Sanʼatda real hayotni tasvirlash rivojlandi. Ozodlik gʻoyalari, shakllanib kelayotgan burjua parokandaligini, feodalizm kirdikorlarini ochib tashlash bu davrda koʻpgina sanʼatkorlar asarlarining gʻoyaviy mazmunini belgiladi. Sanʼat majmuasining kengayishi uning yangi tur va janrlarini maydonga keltirdi. Portret, natyurmort, manzara, maishiy janr koʻp sanʼatkorlarni oʻziga torta boshladi. Haykaltaroshlikning yangi ifoda vositalarini izlab topdilar, gravyura sanʼati shakllandi. Sotsial kuchlarning oʻzaro kurashining rivojlanishi esa sanʼatda turli gʻoyaviy badiiy oqimlarni vujudga keltirdi. Shunday uslublardan biri barokko oqimidir. Barokko uslubida yaratilgan sanʼat asarlarida hayot mohiyati kurash harakati orqali aks ettiriladi. Unda ekspressiv chiziqlar va yorugʻ soyalar oʻta keskin formada olingan boʻlib, ular asar kompozitsiyasining taʼsir kuchini yanada oshiradi. Italiyalik rassom L. Bernini haykallarida, meʼmor Borromining binolarida,

flandriyalik rassom P. Rubens kartinalarida barokko uslubining oʻziga xos tomoni namoyon boʻlgan. Klassitsizm oqimida esa hamma narsa xotirjam va ulugʻvor. Uning namoyandalari uygʻonish davri ijodkorlari singari antik va yuqori uygʻonish davri anʼanalarini qabul etib, uni rivojlantirishga harakat qiladilar. Lekin shu bilan birga klassitsizm vakillari oʻtmish sanʼati badiiy shakl va obrazlarini oʻzlari yashab turgan davr mazmuni bilan toʻldirishga, boyitishga harakat qildilar. Bu oʻrinda Nikola Pussen asarlari, Klod Lorren manzaralari, Jak Sufflo binolari diqqatga sazovordir. Klassitsizm oqimi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmigacha davom etdi va oʻzida davr ruhini ifodaladi. XVII-XVIII asr realistik sanʼatning etakchi oʻringa chiqishi bilan izohlandi. Bu davrda yaratilgan asarlarda inson oʻzining butun borligi bilan namoyon boʻlga boshlaydi. Uning hayoti, his-tuygʻulari, hayotga boʻlgan estetik munosabati sanʼatkorlar ijodida oʻzining badiiy ifodasini topa boshlaydi. Ispaniyalik rassom Diego Velaskes, Gollandiya rassomlari - Rembrant va Frants Xals, italiyalik rassom Karavadjo, frantsuz rassomi Sharden va boshqalar ijodida bu oʻzgarishlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Inson goʻzalligi, uning olijanoblighi va yuksak maʼnaviyliги Rembrant asarlarining mohiyatini tashkil etadi. Uning asarlaridagi chuqur falsafiy mazmun kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Rembrant rangtasvir va ofort sohasida, qanday mavzuda (diniy, hayotiy) ishlashdan qatʼiy nazar insonni kuylashga, uning maʼnaviy pokizaligini va jismoniy goʻzalligini ochishga intiladi. Insonlar orasidagi nozik munosabatlarni tasviriy sanʼat vositasi orqali keng tomoshabinga etkazishga harakat qiladi. Rembrant umrining soʻnggi yillarida yaratgan oʻqpadarning qaytishi oʻ asarida hayot va inson toʻgʻrisidagi tushunchalar oʻz hayotiy tajribalariga tayanib, ota oyoqlariga yiqilgan oʻgʻil obrazi orqali hayotning murakkabligi, uni bilish va unga toʻgʻri yoʻl topa olish nechogʻdik ogʻir ekanligini ochib beradi. Boshiga ogʻir kun va tashvishlarni solishiga qaramay oʻz ogʻdini bagʻriga bosayotgan ota obrazi orqali mehribon, insonlarga faqat yaxshilik istagan moʻʼtabar inson qiyofasi gavdalanadi. Bu asrlardan boshlab inson mehnati goʻzalligi sanʼatkorning diqqatini torta boshladi. Sanʼatkorlar mehnat mavzusida yirik asarlar yarata boshladilar. Evropa sanʼatida Diego Velaskes birinchi boʻlib, mehnat goʻzalligini shoirona, koʻtarinki ruhda talqin etdi. Uning oʻgilam toʻquvchilar oʻ deb nomlangan asari ana shunday asarlaridan dastlabkisidir. Rassom oddiy kundalik hayotda insonlarning xotirjam mehnati orqali ularning baxt haqidagi orzularini koʻra oldi. Kompozitsiyada kishilarning tabiiy holdagi xotirjam mehnati, ularning jismoniy baquvvat gavdalari ishonarli talqin etgan. Xonani toʻldirib turgan nur esa bu tinch osoyishta hayot goʻzalligini yanada boʻrttiradi.

XVII-XVIII asrda ijtimoiy hayotda sodir boʻlgan oʻzgarishlar meʼmorchilik oldiga ham qator muammolarni qoʻydi. Bu davrdan boshlab cherkov qurilishi hajmi kamaydi, uning oʻrnini fuqaro meʼmorchiligi egallay boshladi. Shahar loyihalashtirilishiga alohida eʼtibor berila boshlandi, shaharda meʼmorchilik ansambllari paydo boʻldi. Turmushda goʻzal buyumlarga intilish kuchaydi. Tevarak-atrof goʻzalligiga eʼtibor berish, bogʻ-park sanʼatini maydonga keltirdi. U bilan birga dekorativ haykaltaroshligi ham rivoj topdi.

### **Germaniya va Avstriya.**

17-asrda boʻlgan 30 yillik urush (1618-1648) Germaniyani yanada tarqoqlashtirib, uning iqtisodiy zaiflashuviga sabab boʻldi. 17-asrda boʻlib oʻtgan Prussiya va Avstriya orasidagi nizolar ham Germaniya va Avstriya ijtimoiy hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Ana shu ijtimoiy-tarixiy sharoitda yangicha sanʼat oʻziga yoʻl ochib bordi. Bu dastlab adabiyot va musiqada oʻzini namoyish etdi. (Lessing, Gyote, Shiller, Bax, Gendel). Meʼmorlik va tasviriy sanʼatdagi rivojlanish dastlab, Italiya hamda Frantsiya taʼsirida yuz berdi. 18-asr birinchi yarmida barakko, ikkinchi yarmida klassizm uslubi ustivor boʻldi. Germaniya sanʼatida barokko oʻz koʻrinishi va xarakteri jihatidan Italiya barokkosiga oʻxshab ketsa ham, lekin unga nisbatan detallarning birmuncha mayda va sovuq koʻrinishi bilan farqlanadi. Barakko mavzusi koʻpincha rokokko motivlari bilan aralashib ketadi. Bu xususiyatlar Vyurtsburg saroyi binosi va undagi intererlar (unga J.B.Tepala suratlar chizgan) boy dekorativ bezagida namoyon boʻladi. Drezdendagi yirik cherkov binolari, Postdamdagi San-Susi saroyi ham oʻzining nozik badiiy bezatilishi bilan eʼtiborni tortadi. 18-asr 2-yarmida klassizm Germaniya meʼmorligida etakchi oʻringa chiqa boshladi. Berlindagi Brandenburg darvozasi (meʼmor K.Langgans) oʻzining jiddiy koʻrinishi va tantanavorligi bilan keyinchalik nems meʼmorligining oʻziga xos uslubiy koʻrinishlarini belgilashda muxim ahamiyat kasb etdi. Germaniya va Avstriya tasviriy sanʼatida 18-asrning 1-yarmida asosan barokko taʼsiri kuchli boʻldi. Tepalo hamda Berinining ijodiga taqlid qilish sezildi. Ayrim rassomlarning real borliqni tasvirlashga intilishlari maʼlum darajada realistik jarayonning ham jonlanib borishiga imkoniyat yaratdi. Bu xususiyat portret sanʼatida sezilarli boʻldi. Germaniyalik rassom Balotazar Denner (1685-1749), slovakiyalik rassom Yan Kupetskiy (1667-1740) yaratgan portretlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

18-asrning 2-yarmidan boshlab, Germaniya antik sanʼatni oʻrganish markaziga aylandi. Uning asosiy targʻibotchisi Iogan Ioxim Vinkelman (1717-1768) boʻldi. Uning oʻQadimgi sanʼat tarixi (1764) antik sanʼatga bagʻishlangan birinchi kitob boʻlib, yangi sanʼatshunoslikka asos soldi. U qadimgi yunon sanʼati taraqqiyotining asosiy zamini yunon shahar-davlatlari (polislar) dagi ijtimoiy sharoit ekanligini koʻrsatdi. Vinkelman kitobi yosh Gyote dunyoqarashining shakllanishiga ham kuchli taʼsir qildi. Shuningdek, u boshqa mamlakatlarning klassik estetikasini rivojlanishida ham muhim oʻrin egalladi. Nems rangtasviri va grafikasida ham olimning taʼsiri sezilarli boʻldi. Natijada 18-asr 2-yarmida klassizm etakchi oʻrinni egallab, shu uslubda ishlovchi qator yirik sanʼatkorlar etishib chiqdi. Bular ichida Anton Rafael Mengs (1728-1779) ijodi aloxida oʻrinni egalladi. U evropa sanʼatidagi mashhur va taʼsirli rassomlardan biriga aylandi. Mengs oʻz ijodida antik sanʼatning ideal goʻzallik yaratish borasidagi qonunlariga sodiq qolgan holda, uni Balonye akademistlarining yutuqlari bilan boyitishga, shaklning ifodali, joʻshqin boʻlishiga alohida eʼtibor berdi. Shu bilan birga, Mengs naturani oʻrganish zarurligini unutmadi. Bu uning portretlaridagi realistik jihatini belgilaydi. Nems sanʼatidagi realistik yoʻnalish Daniel Xodovetski (1726-1809) ijodida toʻliqroq oʻzini namoyon etadi. Asli Polshalik boʻlgan bu sanʼatkor angliyalik rassom Xogart taʼsirida nasihatgoʻylik yoʻnalishida qator gravyura va ofortlar ishladi. Jamiyat hayotida sodir boʻlayotgan kamchiliklarni tanqid qildi.



Uning *õ*Dansigga sayohatõ deb nomlangan albom uchun ishlangan suratlari bevosita *o*z ona yurtiga qilgan safari paytida yaratilgan bo<sup>o</sup>lib, ular nems realistik san<sup>o</sup>ati taraqqiyotida muhim *o*rin egalladi.

**Angliya.** Angliya san<sup>o</sup>ati taraqqiyotidagi yangi bosqich 17-asr 2-yarmidan me<sup>o</sup>morchilikda namoyon bo<sup>o</sup>la boshladi. Me<sup>o</sup>mor Inigo Jons (1573-1620) mumtoz me<sup>o</sup>morlikni dastlab A.Palladino ijodini targ<sup>o</sup>ib etishdan boshladi va bu bilan ingliz klassizimi printsiplari shakllanishida muhim rol *o*ynadi. Bu xususiya binoning funksional tomoni qulayligi hamda uning badiiy bezatilishini uyg<sup>o</sup>unlashtirib yuborishga, klassik shakllarni aniq va erkin ishlatishga intilishda namoyon bo<sup>o</sup>ldi. Jons boshlagan ishni keyin mashhur me<sup>o</sup>mor Kristofer Ren (1632-1723) davom ettirdi. U mumtoz shakllarga milliy, *o*ziga xoslik kiritishga harakat qildi. Uning mashhur va yirik asarlaridan biri Londondagi ulug<sup>o</sup>vor va tantanali Avliyo Pavel ibodatxonasi binosidir. Uning intererlari, kompozitsiyasi *o*rta asr me<sup>o</sup>morligiga yaqin. U lotin butiga *o*xshaydi. Lekin bino konstruktsiyasi va ayniqsa, undagi orderlar, katta gumbaz ishlanishi jihatidan mumtoz me<sup>o</sup>morlik tamoyillarini eslatadi va ingliz klassizimining *o*ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

17-asrga kelib, ingliz rassomlari va haykaltaroshligida muhim asarlar yaratildi. Ayniqsa ingliz rassomlarining rangtasvir borasida erishgan yutuqlari keyinchalik evropa san<sup>o</sup>ati taraqqiyotida muhim bo<sup>o</sup>ldi.

Uilyam Xogart (1697-1764) Angliyaning yirik rassomi, ingliz realistik rangtasvirining asoschisidir. Uning rantasvir va gravyuralarida mavjud tuzum, uning illatlari *o*z ifodasini topdi. *o*ziga xos novatorlik bilan ishlangan Xogart asarlari davrning ilg<sup>o</sup>vor g<sup>o</sup>oyalari bilan sug<sup>o</sup>orilgan bo<sup>o</sup>lib, ular ingliz san<sup>o</sup>atida realizm tamoillarini mustahkamlanishiga hizmat qildi. *õ*Go<sup>o</sup>zallikni taxlil etib<sup>o</sup> (1753) kitobida Xogart san<sup>o</sup>atning g<sup>o</sup>oyaviy jihatiga *o*tibor berib, demokratik estetikaga xos tamoillarni ilgari surdi. U rasmiy badiiy nazariyalarni, tashqi jihatidan chiroyli, lekin ichki mohiyati jihatidan bo<sup>o</sup>xsh, hayotdan uzoq san<sup>o</sup>at asarlarini, birinchi galda rasmiy portretlarni tanqid qildi. Kishilar turmushi, jamiyat taraqqiyotini *o*zida to<sup>o</sup>liq aks ettira oladigan maishiy janr etakchi *o*rinni egallashi kerak, dedi. *o*zi shu tamoillarga sodiq xolda asarlar yaratishga intildi. Xogart ijodi 1780 yillardan boshlandi. Uning ilk asarlaridayoq rassom ijodining *o*ziga xos xususiyatlari paydo bo<sup>o</sup>ldi. U, odatda, turkumli asarlar, ya<sup>o</sup>ni bir-biri bilan bog<sup>o</sup>liq bir necha mustaqil kompozitsiyalar yaratishni sevadi. Rassom *o*z fikr va g<sup>o</sup>oyasini turkum asarlarida sekinlik bilan bayon etib, ochib bordi. Masalan, uning *õ*Zamonaviy nikoh<sup>o</sup> (1735) asarlari turkumi olti tugallangan suratdan iborat bo<sup>o</sup>lib, unda kambag<sup>o</sup>llashib qolgan zodagon *o*z *o*g<sup>o</sup>dini boy savdogar qiziga uylantirishi va shu orqali boyib olishga intilishi ko<sup>o</sup>rsatiladi. Asarning so<sup>o</sup>ngida esa uning natijasi-kuyov kelinning *o*ynashi tomonidan *o*ddirilishi, qotilning dorga osilishi, kelin esa alam va uyatga chiday olmay *o*z-*o*zini *o*ddirishi tasvirlanadi. Rassom har-bir kompozitsiyaning tugal, tasvirlangan voqealarning tushunarli bo<sup>o</sup>lishiga alohida *o*tibor beradi.

### **Savollar:**

1. XVII-XVIII asr Evropa san<sup>o</sup>ati taraqqiyotining sabablari nimada va bu davr san<sup>o</sup>atida qanday *o*zgarishlar sodir bo<sup>o</sup>ldi?

2. Barokko, klassitsizm va boshqa uslublar, ularning bir-biridan farqi nimada?

3. XVII-XVIII asrda yashab ijod etgan rassomlardan kimlarni bilasiz va ularning asarlarini aytib bering.

**11 - Mavzu: XVIII-XIX asr Rus sanʼati, XVIII asr oxiri XIX asr Jaxon sanʼati, XVIII asr oxiri XIX asr oʻrtasi Frantsiya sanʼati, XVIII asr oxiri XIX asr Ispaniya sanʼati.**

#### **REJA**

1. XVIII-XIX asr Rus sanʼati.
2. XVIII asr oxiri XIX asr Jaxon sanʼati.
3. XVIII asr oxiri XIX asr oʻrtasi Frantsiya sanʼati.
4. XVIII asr oxiri XIX asr Ispaniya sanʼati.

#### **Adabiyotlar:**

1. Pruch I.E. Zapad. Evropeyskoe isskustvo 17 v. M. 1974 g. (Maldaya istoriya isskustv)
2. Abdullayev N. oʻSanʼat tarixi 2/1o Toshkent 2001 y.

#### MAVZUNING MATNI:

XVIII asr boshlarida rus rangtasvir sanʼatida portret janri yetakchi oʻrinni egalladi. Buning boisi bor edi, albatta. Davlat va sanoat korxonalarining oʻsishi, madaniyatning rivojlanishi aqlli, ziyrak, ishbilarmon odamlarga boʻlgan talabni orttirib yubordi. Qobiliyatli shaxslar oʻzozlandi. Jamiyatning shaxsga boʻlgan bu munosabati portret sanʼatiga oʻtibor qaratilishiga olib keldi. Oʻz mehnati, aql-zakovati, davlat oldidagi xizmatlari bilan xurmatga loyiq boʻlgan kishilar qiyofasi portret sanʼatida oʻz ifodasini topdi. Rus portretchiligi rivojlanishi oʻqirollar palatasi ustaxonasi oʻ rassomlari faoliyati bilan bogʻliq. Bu yerda rus va chet el rassomlari ishlagan portretlar oʻz koʻrinishi va xarakteri jihatidan koʻproq parsunaga yaqinlashib ketadi. Rassomlar parad portret ishlashni maʼqul koʻrishadi. Bunday portretlarda fon shartli ishlanib, unda turli tushuntirish yozuvlari uchraydi. Portretlanuvchilarning liboslari, bezaklarini aniq koʻrsatishga intilish ham portretning dekorativ jihati ortishiga hizmat qiladi. Parsunada fazoviy kenglik va xajm masalasi ham toʻliq echilmagan. Obraz xarakteri toʻliq ochilmagan. Rus sanʼatida mavjud boʻlgan parsuna sanʼati yoʻnalishi asosan 17-asr 80-90-yillarida paydo boʻldi. Rus badiiy hayotiga rasslom-pensionerlarning koʻplab kirib kelishi hamda chet el rassomlari safini kengayishi rus sanʼatida parsuna sanʼatini siqib chiqara boshladi. Rus sanʼatida toʻlaqonli portret asarlari yuzaga kela boshladi. Endilikda tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasigina emas, balki uning murakkab ichki ruhiy dunyosini ham yoritishga intilish boshlandi.

18-asr haykaltaroshligi davr sanʼati va madaniyatining umumiy ravnaqi bilan bogʻliqdir. Bu davrda dumaloq haykaltaroshlik realizmga oʻta boshladi. Yogʻoch oʻymakorligi oʻzining gullagan davrini boshidan kechirdi. Monumental va dekorativ haykaltaroshlik keng yoyila boshladi. Bu sanʼatning rivojlanishi, avvalo Peterburg va uning yaqinidagi saroylarni qurishda dekorativ

haykaltaroshlik, ayniqsa, boʻrtma tasvir-relefdan foydalanish muhim oʻrin tutadi. Bu ishlarni rus ustalari chet eldan kelgan sanʼatkorlar bilan bajardilar.

18-asrning 2-yarmi va 19-asrning boshlarida Rossiyadagi iqtisodiy rivojlanish, savdo-sotiqning oʻsishi, fan va madaniyatdagi yutuqlar rus badiiy sanʼati rivojlanishiga ijobiy taʼsir qildi. Xalq amaliy va dekorativ sanʼati ham ravnaq topdi. Bu davrda rus sanʼati dastlab, meʼmorchilikda shakllangan klassizm uslubiga xos fazilat-shakl aniqligi, kompozitsiya soddaligi va simmetriyaga eʼtibor berdi.

Antik sanʼatga qiziqish va uning shakllaridan ijodiy foydalanishga intilish rus amliy sanʼatida koʻproq rangli toshlarni oʻyish, mebel, chinni va shishalardan yasalgan buyumlar yasash sanʼatida sezildi.

Xalq amaliy sanʼati shu davrga kelib, yangi motiv va shakllar bilan boyidi va oʻzida davr ruxini ifoda etdi. Yogʻoch oʻymakorligi, rang naqqoshligi, kulolchilik, oʻyinchoqlar, tikish-bichish nafis yodgorliklari shu davrning boy rang-barang badiiy hayotidan dalolat beradi.

**XVIII asr oxiri XIX asr oʻrtasi Frantsiya sanʼati.** 1769 yili burjua inqilobi Evropa tarixida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, u sanʼat taraqqiyotida ham muhim yangi oʻzgarishlar yasadi. Inqilobga tayyorgarlik yillarida sanʼat muhim rol oʻynadi. Klassizm uslubi inqilob arafasida burjua inqilobiy gʻoyalarni ifodalovchi badiiy yoʻnalish darajasiga koʻtarildi. Klassizm vakillari oʻz obrazlarining aniq, jiddiy, yorqin boʻlishiga aniq eʼtibor berdilar. Ular antik sanʼat asarlari, ayniqsa, haykaltaroshlik shakllarini taqlid namunasi qilib oldilar va oʻz ijodalarida undan foydalandilar. Inqilob yillari bayramlar munosabati bilan koʻcha va maydonlarni bezash sanʼati paydo boʻldi. Bu sanʼat sanʼatlar sinteziga asoslangan edi. Sanʼatdan koʻzda tutilgan maqsad inqilobiy gʻoyalarni xalq ommasiga etkazish edi. Muzeylar ham shu maqsadga boʻysundirilib, ulardan inqilob yutuqlarini mustaxkamlashda foydalanildi.

Meʼmorchilik. Klassizm tamoyillari dastlab meʼmorlikda koʻrina boshladi. Meʼmor va haykaltaroshlar, rassom va amaliy sanʼat ustalari hamkorlikda ishlab, kishilarning ideal dunyo, orzudagi shahar yaratish haqidagi orzularini roʻyobga chiqarish uchun harakat qildilar. Bu intilish shaharsozlik sanʼatida koʻzga tashlandi. Masalan, meʼmor Klod Ledu (1736-1806) loyihalarida, jumladan, Sho shahri majmuasi, Mark Gabrielning oʻKelishuvlar maydoni meʼmorlik majmuasi loyihalarida shu seziladi.

18-asr oxiri va 19-asr boshlarida klassizm va romantizm orasida qizgʻin kurash ketdi. Klassizm avvalgi gʻoyaviy kuchi va taʼsirchanligini yoʻqotib, reaksion akademizmga aylana bordi.

**XVIII asr oxiri XIX asr Ispaniya sanʼati.** Bu davr ispan tasviriy sanʼatida ham klassizm etakchi oʻrinni egalladi. Uni 1761 yildan Ispaniyada yashay boshlagan nems rassomi Anton Rafael Mengs boshqardi. Lekin, bu davr sanʼatida aynan bir hil yoʻnalish mavjud edi, deb xukm chiqarib boʻlmaydi. Bu davr sanʼatida bir tomondan Mengs, ikkinchi tomondan 1767 yildan Ispaniyada yashab ijod qila boshlagan Tepelo ijodiga taqlid qilishni, shuningdek, milliy rassomlik anʼanalarining davomini hamda realistik jarayonlar rivojini koʻrish mumkin.

Fransisko Goyya (1746-1828) ham 21-asrning yirik rassomi. U Evropa realistik sanʼatining yoʻlboshchisidir. Ispan xalqining fojeali taqdiri va qahramonligi, ijtimoiy hayotdagi real voqealar rassom usun ijod manbai boʻlib xizmat qildi. Shu voqealarni tasvirlash orqali u oʻzining hodisalarga munosabatini, xukm chiqaruvchi sanʼatkor ekanligini namoyon qildi. Uning asarlarida inson hissiyoti, uning xis-tuygʻulari va kechinmalari oʻz ifodasini topdi. Goyya Saragos yaqinidagi qishloqda xunarmand oilasida dunyoga keldi. Tasviriyot asoslarini dastlab shu erdagi mahalliy rassom ustaxonasida oʻrgandi. Keyin tahsilni Madridda akademik maktabining yirik vakili Fransisko Baye qoʻlida davom ettirdi. Italiya boʻylab safarda boʻlib, oʻz bilimni kengaytirdi. Goyyaning ilk ijodida shu davr ispan sanʼatida etakchi boʻlgan klassizm uslubi taʼsiri borligi uning oʻyoq-qoʻdi mihiab qoʻyilgan Isoo suratida namoyon boʻladi. Bu rasmi uchun rassom akademik unvoniga sazovor boʻlgan. Goyya cherkov uchun devoriy suratlar ham ishlagan. Goyyaning rassomlik isteʼdodi qirol Shpaler manufakturasi uchun suratlarida yorqin koʻrindi. 43 kartonda ishlangan bu suratlarida rassom xalq hayotidan olingan lavhalarni-hosil oʻrimi, oʻyin, bayramlarni tasvirlaydi. Xalq sayli va shodiyonasini aks ettiradi. U mahoratini oshirish borasida ishlashni davom ettirib, Velaskes, Rembrandt ijodlarini oʻrgandi. Ularning asarlaridan koʻchirmalar oladi. Rassom oʻz asarlarida zamonasining eng muhim voqealarini koʻrsatish orqali davr mohiyatini ifodalashga intiladi, illatlarni, ziddiyatlarni ochib tashlaydi. Shuning uchun uning asarlari koʻrinishi jihatidan joʻshqin va hayajonli.

#### **Savollar:**

- 1.XVIII-XIX asr Rus sanʼati haqida gapirib bering.
2. XVIII asr oxiri XIX asr Jaxon sanʼatida qaysi uslublar yetakchilik qilgan?
3. Fransisko Goyya ijodi haqida gapiring.
4. XVIII asr oxiri XIX asr Ispaniya sanʼati.

### **12 - Mavzu: XIX asr Angliya va Germaniya sanʼati, XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsiya sanʼati, XX asr Jaxon sanʼati**

#### **REJA:**

1. XIX asr Angliya va Germaniya sanʼati.
2. XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsiya sanʼati.
3. XX asr Jaxon sanʼati.

#### **Adabiyotlar:**

1. Pruch I.E. Zapad. Evropeyskoe isskustvo 17 v. M. 1974 g. (Maldaya istoriya isskustv)
2. Abdullayev N. oʻSanʼat tarixi 2/1o Toshkent 2001 y.

#### **MAVZUNING MATNI:**

18-asr ohiri 19-asr boshlarida Angliya sanʼatida realizm oʻzining gullagan davrini boshidan kechirdi. Shu davrda yashab, ijod etgan koʻpgina rassomlar ingliz sanʼatini boyitib Evropa sanʼatiga ham samarali taʼsir oʻtkazdilar. Rassomlar

jamiyatda sodir boʻlayotgan illatlarni roʻy rost ochishga harakat qildilar, xalqning ogʻir axvolini tasvirlab, turmush mashaqqatlari, odamlarni jismoniy va maʼnaviy mayib qilayotganligini achinish bilan aks ettirdilar. Bir qator sanʼatkorlar esa oʻrta asr afsona va obrazlariga murojlat qildilar.

Meʼmorlikda turli davr uslublariga taqlid qilish namoyon boʻldi. Binolar koʻrinish jihatidan goh gotika, goh Xitoy motivlari, goh Rim meʼmorchiligini eslatib turadi. Bu xususiyatlar tasviriy sanʼatda yanada ochiqroq koʻrinadi. Bu davrda portret va karrikaturada, kitob grafikasida etuk asarlar yaratildi. Lekin katta mifologik asarlarda, hayotiy-maishiy janrdagi kartinalarda gʻoyaviylik yoʻnalish sustligi seziladi.

Vatanparvarlik ruhi bilan sugʻorilgan realistik manzara janrida ingliz sanʼatining yutuqlari namoyon boʻldi. Ingliz realistik manzara janrining taraqqiyoti akvarel rangtasviri rivoji bilan uzviy bogʻliqdir. Ingliz akvarelchilari bu texnikaning oʻziga xos xususiyatlarini namoyon etib, begʻubor, serzavq ingliz tabiatining ajoyib koʻrinishlarini yarata oldilar. Ingliz manzara janrining taraqqiyotida Noriche maktabining asoschisi Jon Krom (1768-1821) taʼsiri, ayniqsa sezilarli boʻldi. Oddiy hayot goʻzalligidan, tabiatning ulugʻvorligi va bitmas-tuganmas boyligidan hayajonlanish, ularni tasvirlashga intilish uning moyboʻyoqda ishlagan asarlarining asosini tashkil etadi.

19-asrga kelib, Germaniya madaniyati yuksaldi va u Gʻarbiy Evropadagi ilgʻor mamlakatlardan biri boʻlib qoldi. Gyote, Geyne, Betxoven, Vanger kabi buyuk sanʼatkorlar ham ana shu davrda yashab ijod etishdi. Gegelning falsafiy qarashlari tizimi ham shu davrda vujudga keldi. Germaniyada adabiyot va musiqa misli koʻrilmagan darajada rivojlangan boʻlsada, tasviriy sanʼat va meʼmorchilik birmuncha orqada qoldi. Germaniya tasviriy sanʼatida romantizm, klassizm va 19-asr oʻrtalarida realizm yoʻnalishlari oʻzaro kurashda boʻldi. Nemis romantizmi 18-asr soʻngida klassizmga qarshi kurashda shakllana boshlagan boʻlib, uning vakillari ilgʻor gʻoyalardan voz kechish, hayoliy timsol tasvirini va shaxsiy kechinmalarini tasvirgashga chaqirdilar. Nemis romantizmidagi bu qarashlar xukmdor sinf tomonidan qoʻllab-quvvatlandi. Albatta, nemis romantizmidagi shaxsiy kechinmalarni ifodalashga intilish va tasvirlanayotgan voqea taʼsirchanligini oshirishga intilish mavjud badiiy shakllarni yanada mukammallashtirishga, klassizmning qotib qolgan uslub va metodlaridan qutulishga imkoniyat yaratdi. Nemis romantizmining ilk koʻrinishi 19-asr birinchi yarmida F.O.Runge, K.D.Fridrix ijodida oʻz ifodasini topdi. Roamntiklar milliy anʼanalarni qayta tiklashga daʼvat etdilar. Ular ona yurt oʻtmishini oʻrganishga eʼtibor qaratdilar.

19-asrning 10-yillaridan boshlab, hayot haqiqatidan uzoqroq boʻlish, davr ziddiyatlariga aralashmaslik bir guruh ijodkorlarning sanʼatga qarashlari uchun xos xususiyat boʻlib qoldi. Ular oʻrta asr diniy monumental rangtasvirini qayta tiklashni maqsad qilib oldilar. Ilk uygʻonish davri sanʼati anʼanalari ular uchun namuna maktabini oʻtadi. Bu guruhga aʼzo rassomlar ōnazareytsō, yaʼni ōzun sochō degan nom bilan ataldilar.

19-asr nemis sanʼatida davrning ilgʻor gʻoyalari oʻz badiiy ifodasini topganligini eʼtirof etish kerak. Bu xususiyat portret va manzara janrida ayniqsa sezilarli boʻldi. Unda tabiatning ulugʻvorligi, inson qalbi goʻzalligi ulugʻlandi.

Frantsiya bu davrda ham Evropa madaniy hayotida etakchi oʻrinni egalladi. Bu erda demokratik harakatlarning oʻsib borishi, 1830 yili sodir boʻlgan xalq gʻalayonlari davlat siyosiy tuzumini larzaga keltirdi. 1848 yildagi gʻalayon ishchilar sinfining katta kuch ekanligini koʻrsatdi. 1871 yilda tashkil topgan Parij kommunasi ommaviy harakatining oʻbuyuk namunasi boʻldi. Frantsiyada boʻlib oʻtgan bu voqealar Evropa mamlakatlarida ham milliy ozodlik harakatlarini kuchayishiga olib keldi. Uning taʼsirida sanʼatda ham qator oʻzgarishlar yuz berdi. Bu jarayonlar ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bogʻliq boʻlib, ular ijodkorlar dunyoqarashi shakllanishida muhim rol oʻynadi.

Onoro Domø (1808-1879). Ijodiy faoliyati davomida burjua tartiblariga qarshi kurashgan Domø oʻz asarlarida odamlar orasidagi samimiy munosabatlarni ulugʻladi, burjua parokandaligini, uning ikkiyuzlamachiligini tanqid qiladi, tevarak-atrofga befarqlikni qoraladi. Domø oʻz ijodini hajviy suratlar bilan boshladi. Satirik portretlar, mavzuli kompozitsiyalar chizdi. oʻQonun chiqaruvchilar uyasi (1834) uning shunday asarlaridandir. Unda deputatlarni palata majlisi vaqtida tasvirlab, ularning har birining oʻziga xos qiyofasini ochib berishga harakat qiladi. Tasvirlangan qiyofalarning hammasida umumiy oʻxshashlik-atrofga befarqlik, maʼnaviy tubanlik, aqliy zaiflik koʻrinadi. Davlat arbobi degan oliy nomga bularning hech qanday aloqasi yoʻqligi koʻrsatiladi.

Barbizon maktabi. Milliy realistik manzara sanʼati rivojida Parij yaqinidagi Barbizon va uning atrofiga yaqin erlarni, Fontenblo oʻrmonini oʻzlari uchun sevimli maskanga aylantirgan rassomlar ijodi muhim rol oʻynaydi. Ular oʻz yurtlarining tabiatini kuzatish va uni chuqur oʻzlashtirish asosida hajm jihatidan katta boʻlmagan manzara janriga xos asarlarni yaratib, tabiat goʻzalligini koʻpchilikka koʻz-koʻz qilib, oʻzlarining yurtga muxabbat va hurmatlarini ifodaladilar. Ular manzara sanʼatida oʻzlarining xis-tuygʻu va kayfiyatlarini ham ifodalashga intildilar. Ular bevosita tabiat qoʻynida asarlar yaratdilar. oʻBarbizon maktabi oʻ iborasi ham shu er nomidan olingan. Bu ibora frantsuz milliy realistik maktab vakillarining 30-40-yillardagi ijodini taʼriflash uchun qoʻllaniladigan boʻlib qoldi. Bu maktab vakillari ijodiga xos xususiyat ona yurt tabiatini kuylash, kishilarda unga nisbatan muhabbat uygʻotishga qaratilganligidandir. Uning asarlari bevosita hayotning oʻzidan olinganligi hamda kompozitsiya va koloritining tabiiy hamda nur va havoga boyligi bilan oʻziga xoslik kasb etadi.

### **13 - Mavzu: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rus sanʼati, XIX asr oxiri oʻ XX asr boshlarida Oʻzbekiston sanʼati.**

#### **REJA:**

1. Talabalarni shu davr rus sanʼati bilan toʻliq tanishtirish.
2. Rossiyaga Evropadan kirib kelgan oqimlar va uning yirik vakillari bilan tanishtirish.

3. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlaridagi O'zbekiston san'ati haqida batafsil tushuncha berish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ilina «Istoriya russkogo iskusstva», M. 1979 y. (34-76)
2. A.D.Chegodeev, M.V.Alpatov «Vsemirnaya istoriya iskusstva», T-4 M.1949
3. M.V.Alpatov «Russkoe iskusstvo XVIII-XIX vekov». M. 1958 y. T-2 (22-45)
4. A.Egamberdiev va boshqalar. «Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixi» Toshkent-2007 y.

#### MAVZUNING MATNI:

Rus san'atining keyingi rivojlanishi XVIII asr boshlaridagi Pyotr I reformalari bilan uzviy bog'liqdir. Pyotr I rus san'ati va madaniyatini ko'tarish uchun haqiqiy jonbozlik ko'rsatdi. Shu davrda Pyotr I Peterburg shahriga asos soldi. Shahar qurilishi uchun chekkadan ko'plab me'mor, quruvchi-injenerlar, rassomlar jalb etildi. Shu bilan birga milliy san'atkorlarni tayyorlash muhim vazifalar qatoriga qo'yildi. Qobiliyatli rus yoshlari chet ellarga o'qishga yuborildi, ularga shaxsiy homiylik qilindi. Bu esa rus badiiy maktabining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda etakchi o'rinni me'morchilik san'ati egalladi. Uning tur va janrlari kengaydi, yangi tiplari, jumladan teatr, kutubxona, saroylar, o'quv dargohlari, maydon va bog'parklar vujudga keldi. Haykaltaroshlik borasida katta yutuqlarga erishildi. Bu o'rinda Pyotr I ga o'rnatgan yodgorlik, o'Mis Chavandozö, V.Kozlovskiyning o'Samsonö, A.Suvorov haykali F.I.Shubinning portretlari, Martosning o'Minin va Pojarskiyö haykallarini eslab o'tish mumkin. Bu asarlar Evropa klassik san'atining an'analarini chuqur egallagan, uni yangi davr mazmuni bilan to'ldira olgan etuk ijodkorlar mavjudligidan, rus san'atining ilg'or vakillari Evropa san'ati bilan uzviy bog'liqligi va aloqadorligidan dalolat beradi. Bu davrda rangtasvir sohasida ham sezilarli rivojlanish bo'ldi. Portretchi rassom I.N.Nikitin, A.G. Antropov, I.P.Argunov, F.S.Rokotov, D.G.Levitskiy, V.L.Borovikovskiyar rus realistik rangtasvirining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Shu davr ijodkorlari san'at tarixida birinchi bo'lib, xalqning ulug'vorligini to'laqonli, ko'p figurali kompozitsiyalar orqali yoritib, o'z davrining haqiqiy obrazli panoramasini yaratishdi. Portret, maishiy, tarixiy va manzara janrlarida yaratilgan asarlar yuksak mahorat bilan ishlanganligi, o'zining chuqur psixologizmi, kompozitsion tugalligi va mazmundorligi bilan hamon kishilarga estetik va ma'naviy ozuqa baxsh etib kelmoqda. XIX asr rus san'ati taraqqiyotidagi dastlabki bosqich bevosita 1812 yil Vatan urushi bilan bog'liqdir. Urushning rus xalqi uchun g'alaba bilan tugallanishi milliy g'ururning o'sishi, insonga nisbatan yangi munosabat, hurmat bilan qarashning paydo bo'lishiga olib keldi, hamon hukm surayotgan krepostnoy tuzumining jamiyat taraqqiyotiga to'siq ekanligini aniqroq ko'rsatib berdi. Rossiyaning ilg'or kishilari bu tuzumning bekor qilinishini talab qilib, Chor Samoderjaviyasiga qarshi kurash boshladilar. Bu kurash bo'lib o'tgan Dekabristlar qo'zg'olonida yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hayotdagi kayfiyatlar san'at va adabiyotga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. San'atkorlar inson qadr-qimmatini ulug'lovchi asarlar yaratishga alohida e'tibor bera boshladilar. Insoniy burch, vatanparvarlik mavzularida asarlar yaratdilar. San'atkorlar o'z

asarlarida ommani tarbiyalash, ular orasida maʼrifat tarqatishga harakat qildilar. Bu davrning ilgʻor vakillari portret ustasi O.A.Kiprenskiy, V.A.Tropinin, A.G.Venitsianovlar edi. Ular hayotni jon dili bilan sevuvchi inson obrazlarini yaratdilar; hayotni toʻlaqonli tasvirlab, inson va tabiat uygʻunligini kuyladilar. Insonlarning mehnatsevarligini, ichki goʻzalligini uning jasurligini oʻz asarlarida koʻrsatdilar. Bu rassomlar mohir pedagog sifatida ham mashhurdir. XIX asrdan boshlab, rassomlar qaysi mavzuga murojaat qilishmasin, qaysi janrda asar yaratishmasin, dastlab oʻz zamondoshlarining his-tuygʻu, fikr va oʻylarini ifodalashga, davrning dolzarb masalalarini xalq orasiga yoyishga harakat qildilar. Bu oʻrinda K.P.Bryullovning oʻPompeyning soʻnggi kuni, A.A.Ivanovning oʻlsoning xalqqa koʻrinishi kabi polotnolari xarakterlidir. oʻPompeyning soʻnggi kuni da rassom oʻtmish voqearini tasvirlash bilan chegaralanmaydi, balki shu fakt asosida oʻsha davr uchun zarur boʻlgan ahloq, burch masalalarini kuylaydi. Rassom odamiylik va xudbinlikni qarama-qarshi qoʻyar ekan, shu bilan birga insoniylikni hamma narsadan yuksak qoʻyadi. Bu hol odamlarning hatti-harakati, hissiy kechinmalaridan yaqqol koʻrinadi. Bryullov oliyjanoblikni, insoniylikni ulugʻlaydi, inson manfaatini shaxsiy manfaatdan yuqori qoʻyadi. A.Ivanovning oʻlsoning xalqqa koʻrinishi asari diniy mavzuda orqali boʻlsa ham, rassomning xalq hayoti masalalari toʻgʻrisidagi fikr-oʻylari unda etakchi oʻrinni egallaydi va natijada asar davr mazmuni va kayfiyatini aks ettiruvchi realistik asar darajasiga koʻtariladi. Xalqning haqiqatga, ozodlikka boʻlgan intilishi va ichki kechinmalari bu asar mazmunini tashkil etadi.

Rus rangtasvirida yaratilgan bu asarlar keyingi rassomlar tomonidan yana rivojlantirildi, mavzulari kengaytirildi.

XIX-asr oxiri tasviriy sanʼat taraqqiyoti va xarakteri bevosita rus revolyutsion harakati bilan chambarchas bogʻliqdir. Rassom va haykaltaroshlar oʻz ijodlarida bevosita revolyutsion demokratlar V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubovlarning gʻoyaviy-estetik printsiplariga murojaat qildilar. Sanʼatkorlar oʻz ijodlarida xalq hayotining mohiyatini ochib berishga, xalqning buyuk qudratini kuylashga harakat qildilar. Inson huquqini paymol etuvchilarga qarshi isyon koʻtardilar, ijtimoiy tuzum kirdikorlarini fosh etdilar. Sanʼatda sodir boʻlgan bu xususiyatlar rangtasvirning maishiy va portret janrlarida yaqqol namoyon boʻldi. Bu sohada etuk, gʻoyaviy pishiq asarlar yaratildi. Sanʼatda sodir boʻlgan bu yoʻnalishlarning ravnaqi bevosita XIX asrning II yarmida tashkil etilgan oʻkoʻchma koʻrgazmalar birodarligi birlashmasining faoliyati bilan bogʻliqdir. Unda mashhur rus tanqidchisi V.A.Stasov hamda sanʼat homiysi P.M.Tretyakovlarning roli katta boʻldi. oʻKoʻchma koʻrgazmalar birodarligi oʻz tevaragiga ilgʻor sanʼatkorlarni birlashtirdi, xalq hayotini aks ettiradigan realistik sanʼatni rivojlantirish va targʻib etishni oʻzining asosiy maqsadi deb bildi. Bu birlashmaga aʼzo boʻlgan, uning gʻoyaviy platformasini tan olgan va koʻrgazmalarida qatnashgan rassomlar oʻsayyor rassomlar deb nomlandilar. Bularning yordam boshchisi va tashkilotchilaridan biri Ivan Nikiforovich Kramskoydir. U portretchi sanʼatkor sifatida taniqli boʻlib, uning asarlari oʻzining chuqur psixologizmi bilan ajralib turadi. Uning koʻpgina portretlari chuqur talqin etiladi, yaʼni tasvirlanayotgan obraz biron-bir narsa bilan shugʻullanayotgan paytda,



tevarak-atrof koʻrinishi bilan bogʻliq tarzda tasvirlanadi. Ayniqsa, uning oʻNekrasovö, oʻNotanish ayolö asarlari juda mashhurdir.

oʻSayyor rassomlarö aʻzosi, taniqli rassomlardan biri V.G.Perovdir. U oʻzining butun ijodiy faoliyatida xalq hayotini tasvirlashga, mavjud tuzum kamchiliklarini ochib tashlashga intildi. Uning bu intilishlari oʻUchovlonö, oʻMarhumni kuzatishö, oʻChegaradagi mayxonaö kabi qator asarlarida oʻz ifodasini topgan. XIX asrning II yarmidan boshlab rus badiiy hayotida faol ishtirok eta boshlagan buyuk rus rassomi I.E.Repin oʻzining butun umrini rus sanʻatining ravnaqiga bagʻishladi. Repin tarixiy, maishiy va portret janrlarida samarali mehnat qilgan. Uning asarlari oʻzining chuqur psixologizmi, badiiy tilining soddaligi va tushunarlilik hamda yuksak professional mahoratda ishlanganligi bilan kishini hayratlantiradi. U yirik, koʻp figurali asarlar yaratdi, oʻKursk guberniyasidagi yurishö, oʻZaporojeliklar maktubiö, oʻVolgadagi burlaklarö, oʻIvan Grozniy va uning oʻgʻli Ivanö, oʻKutmagan edilarö kabi buyuk asar shular jumlasidandir. Shu bilan birga u mashhur zamondoshlarining portretlari galereyaisni ham yaratib qoldirdi. Bular ichida M.P.Musorgskiy, M.V.Glinka, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, V.V.Stasov portretlari diqqatga sazovordir. XIX asrning ikkinchi yarmida samarali ijod qilgan V.M.Vasnetsov oʻz ijodida xalq doston va ertaklardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratdi. Uning oʻPahlavonlarö, oʻAlyonushkaö, oʻBoʻri mingan shahzodaö, oʻKanizey podsho huzuridaö, oʻUyqudagi malikaö, oʻUchar gilamö asarlari mashhurdir. Bu asarlarda xalqning baxt-saodat va adolat haqidagi orzu-umidlari kuylanadi. Bu davr dunyoga mashhur yirik sanʻatkorlarni etkazib berdi. Ular ichida portret ustalari V.A.Serov, K.Korovin, K.Makovskiy, buyuk rus tarixiy janrchisi V.I.Surikov, N.A.Yaroshenko, I.M.Pryanishnikov, teatr rassomi M.A.Vrubel, N.A.Kasatkin, A.E.Arkipov.

Bu davrda haqiqiy rus milliy manzara rangtasviri maydonga keldi. Manzarachi rassomlar rus oʻlka-sining goʻzalligi, bepoyonligini koʻrsatish orqali kishilarda vatanparvarlik hislarini oʻstirishga, oddiy tabiat koʻrinishidagi goʻzallikni toʻlaqonli ifodalashga harakat qildilar. Tabiatning turli holatlarini real tasvirladilar. A.K.Savrasov ana shunday birinchi rassomlardandir. Uning oʻQora qargʻalar uchib kelishdiö deb nomlangan suratida qish qaytishi, tabiatning jonlanishi tushunarli va jonli talqin etilgan. Shu davrda yashagan I.I.Shishkin, F.A.Vasilev, V.D.Polenov kabi rassomlar ham rus manzara tasviri namunalarini yaratib qoldirdilar. Shu davrda yashab ijod etgan yirik rus rassomi I.P.Levitanning mavzusi ham rus tabiatini kuylashga qaratilgan. U oʻz asarlarida tabiat goʻzalligi va ulugʻvorligini koʻrsatish bilan birga, asarlarida davr kishilarining ruhi ifodalashga, oʻzining hayot toʻgʻrisidagi falsafiy fikrlarini bayon etishga harakat qildi. Uning oʻVladimirkaö, oʻQabr ustidaö, oʻMangu sukunato kabi asarlari shular jumlasidandir.

XX asr boshlarida insoniyat tarixida yangi davr boshlandi. Bu sanʻat chin maʼnoda ommani orzu-istaklarini, his-tuygʻu, fikr-oʻylarini ifodalovchi sanʻatga aylandi. Xalqning oʻzi esa uning ijokori boʻlib, maydonga chiqdi.

Sanʻatning bosh qahramoni xalq edi. Uning oliyjanob mehnati, er yuzida tinchlik, demokratiya uchun olib borayotgan kurashi, hayotga boʻlgan chuqur muhabbati sanʻatkorlarning asosiy mavzusidir. Bu davrda sanʻatning mavzusi

kengaydi, uning yangi tur va janrlari maydonga keldi. Bu tarixiy sobiq inqilob janridir. Bu janrning mazmuni bevosita shoʻrolar inqilobi, fuqarolar urushi yillari bilan bogʻliqdir. Rassom va haykaltaroshlar bu janrga murojaat qilar ekanlar, dastlar xalqning ulugʻvorligi va qudratini ochib berishga harakat qildilar. Bu davr ajoyib ustalarni etkazib berdi. Bular ichida rassomlardan Isak Izrailevich Brodskiy edi. U bir nechta yirik monumental asarlar yaratdi. Bulardan tashqari shu davrning yirik rassomlaridan G.G.Ryajskiy, B.V.Ioganson, K.S.Malevich, A.V.Lentulov, A.A.Deyneka, A.A.Plastov, M.Serov, A.Samoxvalov kabi rassomlar yashab ijod qilganlar. Inqilob mavzusidan tashqari manzara janri ham katta yutuqlarga erishdi. Manzara janrida ishlagan rassomlardan biri bu A.A.Rilov edi. Uning asarlari goʻzal va ulugʻvor. U asarlarini davr kishilari ruhi bilan toʻldirishga harakat qiladi. Oktyabr toʻntarilishi va fuqarolar urushini aks ettiruvchi asarlar, insonlarning mardligi va jasoratiga bagʻishlangan polotnolar ham oʻsha davr tarixida faxrli oʻrinni egallaydi. Bu mavzudagi asarlar oʻzining ishlanishi va uslubining rang-barangligi bilan ajralib turadi. A.A.Deynekaning oʻPetrograd mudofaasiö deb nomlangan polotnosi 1928 yil yaratilgan. M.B.Grekovning oʻBudyoniy otryadigaö, N.M.Shuxminning oʻMaydonga chiqish haqida buyruqö G.K.Savitskiyning oʻEski armiyaning 1918 yil stixiyali qaytishiö K.S.Petrov-Vodkinning oʻKomissarning oʻldimiö, 1919 y. oʻTrevogaö, I.D.Shadrning oʻTosh-proletariat quroliö kabi asarlarida sobiq inqilob va fuqarolar urushi yillaridagi kishilarning kayfiyati oʻzining badiiy ifodasini topgan.

Shu bilan birga kishilarning dushmanga boʻlgan nafrati, oʻz yurti va xalqiga boʻlgan chuqur muhabbati sanʼatkorlarning II jahon urushi mavzusidagi ishlangan asarlarida oʻzining badiiy ifodasini topdi. A.Deynekaning oʻSevastopol mudofaasiö (1943), S.A.Gerasimovning oʻTartizanning onasiö (1942), F.D.Favoyrskiyning oʻOʻldimdan kuchliö (1951), I.Toidzening oʻOna Vatan daʼvatiö (1941) asarlari shular qatoridandir.

Bu davrda maishiy janr ham yangi mazmun kasb etdi. Bu mavzuda yaratilgan asarlarda shu davr kishilarining kundalik turmushi, mehnati, yoshlarning tarbiyasi aks ettirildi. N.B.Terpsixorovning oʻBirinchi shoirö, E.M.Cheptsovning oʻQishloq yacheykasining majlisiödeb nomlangan suratlarida kechagi dehqonning bugungi kunda jamiyat ishlarida faol ishtirok etayotganini sodda, lekin ishonarli talqin etiladi. Maishiy janr taraqqiyoti,jamiyt taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanadi. II jahon urushi yillari oʻsha davr kishilari uchun haqiqiy sinov yillari boʻldi. Bu yillarda ularning front ortidagi qahramonligi, rassomlarning maishiy mavzusidagi asarlarida oʻz ifodasini topdi. Bu janrning keng rivojlanishiurushdan keyingi yillarga toʻgʻri keldi. Bu yillarda u etakchi janr qatoridan oʻrin olib, xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab oluoʻchi sanʼat darajasiga koʻtarildi. Rassomlar asarlarida tinch mehnat, farovon xayotgoʻzalligini kuyladilar. Insonlar orasidagi mehribonlik, olijanoblik, doʻstlik kabi fazilatlarini ulugʻladilar. Bu davr sanʼatida yoshlar hayotiga bagʻishlangan juda koʻp asarlar ham yaratilgan. Bu asarlarda sobiq sovet yoshlarining sanʼatga, maʼrifatga qiziqishi tarannum etiladi. Bolalar hayotiga bagʻishlangan asarlar ham yaratildi. F.P.Reshetnikov tomonidan yaratilgan oʻYana ikki oldingmi?ö, oʻKanikulga qaytdiö kabi asarlarida bolalarga xos boʻlgan xislatlar ishonarli talqin etiladi.

## **XIX-asr oxiri va XX-asr boshlaridagi O'zbekiston san'ati.**

Me'morchilik. XIX asrda Xiva, Buxoro, Qo'qonda machit, madrasa, maqbara kabi an'anaviy tipdagi madaniy binolar kompozitsion uslub jihatidan hashamatli bezakdor turur joylar sifatida quriladi. Bu davrda rus shahar qurilishi uslubi kirib keldi. Mustaqil reja asosida yangi Skoblev (Farg'ona) shahri bunyod etildi. Andijon, Toshkent, Samarqandda ham yangicha shahar qurilishi rivoj topdi. O'zbekiston xalq me'morchiligida XIX-XX asr uchun Farg'onada ikki tomonga ochiladigan darvozalar va yopiq eshikli derezalar, bezakdor devordagi taxmonlar, o'ymakor ganch va shiftning naqshdorligi, Buxoro va Samarqandda jimjimador ustunli ayvon, guldor devorlar va o'ymakor naqshlar harakterlidir. Xiva uchun esa atrofi o'ralgan ayvonli xovlilar, jimjimador yog'och o'ymakorli ustunlar, qishloq chorbog'dari mustaxkam arxitektura shakllariga taqlid qilingani bilan diqqatni tortadi. O'zbekistonning turli xududlarida ip-gazlamaga oid, yarimshoyi va shoyi gazlamalar, rangi bir xil, targ'ol, rang-barang naqshli xonatlaslar to'qish keng tarqalgan. Shuningdek, bu davrda O'zbekistonda do'ppi, kiyim-kechak, so'zana, gul bosilgan gazlama, zardo'ziy gilam to'qish, terini oshlash, metallan badiiy buyumlar yasash, zargarlik san'ati, kulolchilik san'ati rivojlangan. Naqshlar turli guldor va geometrik, epigrafik, hayvonlarning shartli belgilari, o'slimiö shakllari bilan to'dib toshgan.

XIX asr oxiri XX asrda O'zbekistonda xalq amaliy san'ati biroz tushkunlikka uchradi. XIX asr oxiri XX asrda paydo bo'lgan dastgohli rangtasvir I.Kazakov, S.Yudin va boshqalar ijodida etnografizm va maishiy turmushni hijjalab hikoya qilish va passiv kuzatuvchanlik bilan qayd qilinadi.

XX asr me'morchiligida ba'zi qurilishlar avvalgi eklektik xususiyatlarni saqlab qoldi, boshqalari konstruktivizm ruxida yaratildi, uchinchilari esa masalan, arxitektor G.M.Svarichevskiy O'zbekiston fanlar akademiyasi prezidiumi binosi proektida XX asrga xos bo'lgan me'morlik shaklini O'rta Osiyo arxitekturasi harakterli xususiyatlarini o'zida saqlab bunyod etdi. 30-yillarda Toshkent, Samarqand, Andijon shaharlarini qayta qurish loyihasi tuzib chiqildi, Chirchiq singari yangi tipdagi shahar qurilishiga asos solindi. Arxitektor S.N.Popupanov tomonidan toshkentdagi xukumat uyi singari ijtimoiy-ma'muriy binoda konstruktivizm va neoklassizm uslublari, O'rta Osiyo mahobatli me'morchiligi va o'zbek xalq qurilishi an'analari singdirib yuborildi, o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanildi. Uy-joy qurilishida ko'p qavatli turar joy binolari shakllana boshladi. 40-yillarda ayniqsa, sanoat qurilishi shiddat bilan keng avj oldi. Shu davrla Toshkent, shuningdek Olmaliq, Bekobod kabi sanoat shaharlarining asosiy loyihasi tuzilib, yangi sanoat markazlari tashkil etildi. Arxitektor A.V. Shusev tomonidan malga oshirilgan A.Navoiy nomidagi katta opera va balet teatri binosi 40-yillarning birinchi yarmi va 50-yillar O'zbekiston me'morchiligiga katta ta'sir qildi. Bu qurilish loyihasida klassik shakl O'rta Osiyo an'anaviy tajribalari bilan uyg'unlashgan xolatda amalga oshirilgan. 60-70-yillarda sanoatlashgan uslub qurilishiga o'tish o'z yakunini topdi. Katta-katta bloklardan tashkil topgan, sinchlardan iborat, issiq iqlim va zilzilaga chidamli, ko'p qavatli uylar qurilishi o'zlashtirildi. O'zbekistonda bu uslubdagi qurilishlar dastlab 60 yillarda Navoiy shahrida amalga oshirildi. 1966 yilgi zilziladan so'ng xozirgi zamon

meʼmorchiligining yangi printsiplari Toshkent shahrini qayta tiklash va qurishda oʻz aksini topdi.

60-80-yillardagi jamoa binolari meʼmorchiligi oʻzining aniq maqsadga qaratilgan kompozitsion kengligi, shaklning mahobatligi bilan ajralib turadi. Misol sifatida 1962-64 yillarda arxitektor V.Berezin loyihasi asosida qurilgan sanʼat saroyi, arxitektor I.Merportning oʻzbekiston mehmonxonasi, F.Tursunov, R.Xayriddinovlarning Oʻzbekiston rassomlar uyushmasi koʻrgazmalar zali, meʼmor S.Odilov, Y.Bukina, Rozanovlarning xalqlar doʻstligi saroyi va meʼmor V.Apivak tomonidan malga oshirilgan oʻ Moskva (Chorsu) mehmonxonasini olishimiz mumkin. Bu maʼmuriy binolar jihozida anʼanaviy xalq amaliy meʼmoriy bezaklari, mahobatli rangtasvir va haykaltaroshlik namunalari keng qoʻllanilgan.

Oʻzbekiston tasviriy sanʼatining vujudga kelishi va shakllanishidagi birinchi bosqich 1910-20- yillarga toʻgʻri keladi. L.Bure, A.Volkov, A.Tetevosyanlarning ijodiy izlanishlari bu davr tasviriy sanʼati haqida tasavvur beradi. Bu davrda omma uchun xajviy chizgilar rivojlandi, bunday sanʼat asarlari M.Kurzin, V. Rojdestvenskiy, S.Malt, A.Nikolaev (usto Moʻmin), I.Ikromov, M.Hakimjonov va boshqalar tomonidan amalga oshirildi. 20-yillar rangtasvirida P.Benkov, A.Volkov, O.Tetevosyan, A.Nikolaev, OʻTansiqboev, N.Karaxanlar faol ijod qilishdi. Ular ijodida milliy oʻziga xoslikning turli koʻrinishlari va xolatlari, uslubiy izlanishlarning turli-tumanligi, yorugʻ-soya va kalaristik talqin namoyon boʻldi.

Koʻp xollarda rassomlar naturadan olgan taassurotlarini hikoya qilishga berilib, kartinada shu toʻplagan taassurotlari yigʻindisini berishga eʼtibor qaratilmagan. Bu oʻsha davr rangtasvirining karakterli xususiyatidir. Anʼanaviy xalq turmushi koʻpincha meʼmorlik, jonli, shovqin-suronli bozorlar, choyxonada osoyishta choy ichish fonida tasvirlanadi. Rassomlarni kishilar egnidagi sharq kiyim-kechagiga xos serxashamlik va ranglarga boylik koʻproq oʻziga tortadi. Bu xususiyatlar A.Usupov, L.Bure, R.Vommer, I.Kazakov asarlarida koʻrindi.

30-yillarda P.Benkov bilan birgalikda N.Kashina, Z.Kovalevskayalar muvaffaqiyatli izlanishlar olib bordilar. Mahalliy rassomlardan A.Abdullaev, B.Hamdamiy, A.Toshkenboev, Z. Saidnosirova, L.Abdullaev, R.Temurovlar oʻz izlanishlarini boshladilar. 40-yillarda tashviqot plakatlariva hajviy chizgilar oʻ OʻZ TAG oynasi o da bosilib chiqdi.

50-yillarda zamonaviy meʼmorchilikka xos asarlar, manzara, portret, batal janridagi izlanishlar koʻzga koʻrina boshladi. Bu davr Sankt-Peterburg Badiiy akademiyasini bitirib kelgan mahalliy rassomlar R.Axmedov, M.Saidov, N.Qoʻziyboev, shuningdek Z.Inogʻomovlarning ijodiy faoliyati bilan bogʻliq. Mahobatli rangtasvir rivojida Ch.Axmarov izlanishlari eʼtiborga molikdir. Haykaltaroshlikda F.Grishenko, N.Krimskaya, A.Ivanov ijodi ahamiyatlidir. Shuningdek, bu davrda kitob va dastgohli grafika ham jonlandi.

60-80-yillarda ifodaviy vositadagi taʼsirchanlik xususiyatining jadal suratlar bilan kuchayishi yuz berdi. Sanʼatdagi egiluvchan echim uslubining kuchayishi, naturani obrazli umumlashma darajasiga koʻtarish alomati sezildi. Rangtasvirda N.Pak, R.Choriev, B.Boboev, J.Umarbekov, S.Abdullaev, Sh.Abdurashidov, Y.Melnikov, V.Burmakinlar ijodi ayniqsa koʻzga tashlandi.

Grafikada shu yillari Q.Basharov, V.Parshin, M.Kagarov, F.Kagarov, T.Muhamedov, S.Subxonov, A.Siglensevlar samarali ijod qildilar. Ular milliy harakterning teran ildizlarini anglashga intildilar. Haykaltaroshlar A.Axmedov, M. Musaboev, A. Boymatov, D. Roʻziyboev, X. Husniddinxoʻjaev, R. Nemirovskiylar faol izlanishlar olib bordilar.

### Savollar:

1. Pyotr I reformalarining rus sanʼatining rivojlanishiga koʻrsatgan taʼsiri nimada?
2. Bu davrlarda rus meʼmorchiligi sanʼatining rivojlanishi.
3. Rus tasviriy sanʼat janr va turlari qanday rivojlangan?
4. XIX asr tarixida rus sanʼatining tutgan oʻrni?
5. Qanday rassomlar yashab, ijod qilishgan?
6. A.G.Venetsianov rus sanʼatida qanday oʻrin egallaydi?
7. Pompeyning soʻnggi kuni oʻ asarining muallifi kim, asar qanday gʻoyalarni ilgari suradi?
8. XIX-asr oxiri rus sanʼatining xarakterli tomoni nimada?
9. Koʻchma koʻrgazmalar birodarligining mohiyati, uning rus demokratik sanʼatining rivojlanishiga oʻtkazgan taʼsiri nimadan iborat?
10. I.Repin, V.I.Surikov, V.M.Vasnetsov ijodi toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
11. Bu davrda yashagan rassomlar ijodida qanday mavzular etakchi oʻrinni egallaydi?
12. Rus manzara janri va uning vakillari toʻgʻrisida nimalar bilasiz?
13. XX asr. Sobiq sovet sanʼatining xarakterli tomoni nimada?
14. Bu davrda qanday janrlar vujudga keldi?
15. Qanday rassom va haykaltaroshlar yashab ijod qildilar?
16. Bu davrda maishiy janr qanday mazmun kasb etdi, uning avvalgi davr sanʼatidan farqi nimada?
17. Portret va manzara janrlarida sodir boʻlgan oʻzgarishlarni aytib bering.
18. XIX asrda Xiva, Buxoro, Samarqand, Qoʻqonda rivojlangan meʼmorchilik uslublarining oʻziga xosligi haqida gapiring.
19. 20-30- yillardagi qurilishlarda qoʻllanilgan 3 xil meʼmorchilik uslublarini sharxlab bering.

## 14 - Mavzu: XX asrning birinchi v ikkinchi yarmida O'zbekiston san'ati

### REJA:

Talabalarga ushbu mavzuni tushuntirish va tanishtirish. Etakchi rassomlar ijodi bilan tanishtirish.

### Adabiyotlar:

1. Oydinov N. Tasviriy san'at tarixidan lavhalar. Toshkent, O'qituvchi 1997 y. (53-60)

### MAVZUNING MATNI:

XX asr boshlarida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, san'atda ham o'z ifodasini topdi. Buni dekorativ amaliy san'at asarlaridagi kompozitsiyalarda, ularning syujet va motivlarida, real hayotning tasvirlanishida, voqealarni ustalar tomonidan real tasvirlashga intilishlarida ko'rish mumkin. Bunday o'zgarishlar rus va o'zbek me'morchilik san'ati an'analarining bir-biriga yaqinlashishi va qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan yangi uslublarda ham namoyon bo'la boshladi. Realistik dastgoh san'ati maydonga keldi. Buni birinchi bo'lib, XIX asrning 40-yillaridan boshlab O'rta Osiyoga kela boshlagan rus badiiy maktabining talabalari boshlab berdilar. Bu borada rus rassomlari A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer, 1886 yilgi ko'rgazmada toshkentlik To'xta-Sodiq Xo'jaevning alebstrdan yasagan ot va kiyik haykalchalarining qo'yilishi, 1915 yil bosmadan chiqqan S.Siddiqiyning "Korov" epik poemasi grafiq illyustratsiyalarining yuzaga kelishi davr taqozosi edi. O'zbekistonda san'atni targ'ib etish, ko'rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliy lashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. 1918-20 yillarda Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko'plab mahalliy yoshlar jalb etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirok etdi. Shu bilan birga o'zbek xalq san'atini o'rganish orqali rassomlar haqiqiy milliy san'at namunasini yaratishga, o'z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo'ldi. Korovinning shogirdi bilan bu rassom 1915 yil birinchi bor O'zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiati, boy me'morchilik yodgorliklari yosh rassomni o'ziga mahliyo etdi. O'zbekistonda o'z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o'qishni bitirgach, butunlay O'zbekistonga ko'chib keldi va o'zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag'ishlangan. Gavjum ko'chalar, noz-ne'matga boy bozorlar, choyxonalar rassomning ko'pgina asarlarining mazmunini tashkil etdi. Xalq milliy san'at namunalarini o'rgandi. Asarlarida O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlarni, odamlarning mehnatga bo'lgan munosabati badiiy ifodasini topa boshladi. O'sha yillari O'zbekistonda bir qator iste'dodli rassomlar yashab ijod qilganlar. Bular ichida Farg'onada tug'ilib o'sgan Aleksandr Volkovning asarlari juda rang-barang va falsafiy mazmunga boy. Voronejdan kelgan va butun umr Toshkentda yashab ijod qilgan Usto Mo'min (Nikolaev) bir qator ajoyib nafis, lirik, shoirona asarlar yaratdi. Davr kayfiyati, kishilarning hayotga bo'lgan yuksak munosabati uning asarlarida o'zining haqiqiy poetik ifodasini topdi. Uning shunday asarlari ichida

õBahorõ, õBedanabozõ, õDoõstlik», «Muhabbatõ, õKuyovõ, õChoyxonachiõ kabilardir.

Oõzbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U oõzbek sanõatining rivojlanishiga, milliy kadrlar etishib chiqishiga katta hissa qoõshdi. U Buxoro, Xiva, Samarqand haqida juda koõp polotnolar ishlagan. Bular asosan yarim manzara va yarim maishiy janrda boõdib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir meõmorchilik fonida ustalik bilan tasvirlaydi. Ajoyib ayollar obrazini ham yaratadi. õDugonalarõ, õDutorchi qizõ deb nomlangan asarlar doõstlik mavzusida yaratgan yirik asarlaridir. 20-30-yillardan boshlab milliy rassomlar koõrina boshlandi. Ular oõzlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy koõrgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jonlantirdilar. Bu yillarga kelib sanõat mavzusi kengaydi. Doõstlik, tinchlik, mehnat goõzalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Isteõdodli yosh rassom Bahrom Oõamdamiyning õIsh tugadiõ deb nomlangan kartinasi shu davrda kishilar ongida sodir boõdgan oõzgarishlar oõz ifodasini topdi. Shu bilan birga Lutfulla Abdullaevning õYosh shoir uyidagi uchrashuvõ deb nomlangan asar yoshlar orasida sanõat va maõrifatga intiluvchi yoshlarning fazilatlarini ochib berishga bagõvishlangan. Bu yosh rassomlar Oõzbekiston sanõatining taraqqiyotiga salmoqli hissa qoõshdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillari oõzbek rassomlari uchun katta sinov boõdi. Ular goõyaviy jihatdan chiniqdilar. Ular front gõalabasi uchun ragõbatlantira oladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. Urush yillarida Oõzbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov badiiy institutlari, ular bilan birga kelgan etuk sanõatkorlar - D.Moor, V.Favorskiy va boshqalar respublika badiiy hayotini jonlantirishga koõmaklashdilar. Urush tugagach, tinchlik yillari oõzbek sanõati ham oõz rivojlanishida yangi bosqichga qadam qoõydi. Inson goõzalligi, tabiat ulugõvorligi rassomlarimiz polotnosida oõz ifodasini topa boshladi. Bu urushdan keyingi yillarda yaratilgan A.Abdullaevning A.Oõdiyoyatov portreti, T.Oybek, L.Abdullaevning õQahramonni kutib olishõ, OõTansiqboevning õQayroqqum GESida tongõ, R.Ahmedovning õOnalik oõylariõ, R.Timurovning õSamarqandõ, Yu.Elizarovning õOõzbekiston sanõatkorlar guruhi portretiõ, N.Karaxonning õOltin kuzõ, V.Fadeevning õSoqchi ayolõ, M.Saidovning õXirmondaõ, Ch.Ahmarovning devoriy rasmlari va boshqalar oõzbek sanõati tarixida oõzlarining munosib oõrnini egallaydi. Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab, barcha koõrgazmalarda faol ishtirok etib, sanõatimiz taõsirchanligini ortib borayotganini namoyish ettilar. Bizning rassomlar koõplab koõrgazmalarda qatnashdilar. 60-70 yildan boshlab, oõzbek sanõati yangi pogõonaga qadam qoõydi. Bu davrda faqat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlar ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarlarini talqin etishda uning emotsional tomoniga eõtibor berish kuchayganligi yaqqol koõzga tashlandi. Buni B. Boboev va R. Chorievlarining kartinalarida, T. Muhammedovning karikaturalarida, F. Grishchenkning, X. Xusniddinhoõjaevning haykallarida koõrish mumkin. Oõzbek sanõati zafarli yoõlni bosib oõtdi.

**Savollar:**

1. XX asr boshlarida o'zbek san'atida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. O'zbek san'atida realistik dastgoh san'atining rivojlanishida an'ana va o'ziga xoslik nimada?
3. O'zbek san'ati taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ayting.
4. XX asrlarda O'zbekistonda qanday rassomlar yashab ijod qilib kelganlar?
5. B.Hamdamiyning o'ish tugadi o' asari qaysi davr haqida hikoya qiladi?
6. P.Benkovning ijodi to'g'risida nimalar bilasiz?

## **15 - Mavzu: Mustaqillik davri O'zbekiston san'ati**

### **REJA:**

1. Shu davr san'atkorlari va ularning asarlari bilan tanishtirish.

### **Adabiyotlar:**

1. Oydinov N. Tasiriy san'at tarixidan lavhalar. Toshkent «O'qituvchi» 1997. (60-89)

MAVZUNING MATNI: O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-neomatlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmoqlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroslarni etkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziyoev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat O'akimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, o'afur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rangtasvir ustasi xalqimiz an'analariga, boy va sarmazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lobar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, o'Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri o' triptixi, o'Bola xonada o', o'Intizorlik o', o'Yosh oila haqida qo'shiq o' kabi o'nlab asarlar moybo'yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka etaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'dum va mashhurdir.



Bahodir Jalolov ham O'zbekiston xalq rassomi bo'lib, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Ch.Ahmarov, R.Choriev, E.P.Melnikov, B.D.Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko'zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuygular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. U portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B.Jalolov ijodida olam sirlari o'zgacha talqin etiladi. Bunga, o'Gul va Rayhon afsonasi, o'Nido, o'Baxt qushi, o'Abadiy va navqiron Hindiston, o'XXI asr Madonnasi kabi ko'plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo'lgan o'zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir.

Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboev faoliyatida yaqqol qurish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan D.Ro'ziboev haykaltaroshlik olamiga asosan 60 yillarda kirib keldi. San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz. Shu bilan birga u portret janrida ham ijod qiladi. San'atshunos olim R.Toqtash obrazi, rassom V.Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to'laqonli o'z ifodasini topgan. D.Ro'ziboev haykaltaroshlik san'atida katta bir maktabni o'rnatib kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy. Buni biz san'atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san'atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo'lalishimiz mumkin. Ro'ziboev haykallaridagi shakl va hajmlarga bo'y-choy berish bilan ularning sehirli olamini yanada mo'ljizali qila oladi. San'atkor bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan voqeani rangin sirlarini matolarda yanada to'ldiradi. Yana bir muhim tomoni D.Ro'ziboevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San'atkor ko'atarinki ruh bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o'rganib, o'z haykallarida mujassamlashga intiladi. O'z haykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma'naviyatini tobora to'laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi - jahon tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston san'ati boy merosga ega. O'z zamoni bizning rassomlarimiz va haykaltaroshlar butun dunyoga taniqli bo'lib qolgan. Dekorativ-amaliy san'atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Ustalarimiz ijodi nafaqatgina mustaqil O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'z obro' e'tiboriga ega.

**Savollar:**

1. Zamonaviy O'zbekiston san'ati to'g'risida nimalar aytib bera olasiz?
2. Zamonaviy O'zbekiston rassomlari ijodida qanday mavzular etakchi o'rinni egallaydi?
3. A.Mirzaev hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
4. Xaykaltarosh D.Ro'ziyev hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?